

ISSN:
2181-3027

58

Volume-58 Issue-1 May - 2024



PEDAGOGS

International research journal



PEDAGOGLAR.UZ

Scientific Research Center

PEDAGOGS

Legal, medical, social, scientific journal

Volume-58

Issue-1

May – 2024

IN ALL AREAS



TAHRIRIYAT | EDITORIAL

Editor in chief

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Executive Secretary

Abdurahmonov Boburjon

*He is mathematic teacher at
Uzbekistan District 49 Secondary School*

Preparing for publishing

Kholikov Tokhirjon Shavkatjon ugli
CODEMI academy teacher

Bosh muharrir

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Mas'ul kotib

Abdurahmonov Boburjon

*O'zbekiston tumani 49-umumiy o'rta
ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi*

Nashrga tayyorlovchi

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li
CODEMI akademiyasi o'qituvchi

TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI | EDITORIAL BOARD MEMBERS

Inobatxot Mirzaraximova*Rishton tuman XTB mudiri****Umida Barzieva****Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarma metodisti****O'rinov Ahmadjon Qo'shaqovich****Farg'ona Davlat Universiteti, Matematika fanlari doktori, professor****Toshboltayev Muhammadjon****Toshkent mashinasozlik institute, Texnika fanlari doktori, Professor****Qodirov Nabijon O'lmasovich****O'zbekiston xalq ustasi, (usta kulol)****Turdiyev Azizbek Anvarovich****O'zbekiston madaniyat va san'at vazirligi, journalist****Ne'madaliyev A'zam Muhammadjonovich****Cyberlayn firmasi asoschisi, iqtisod fanlari nomzodi, PhD****Mohinur Saidova****Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent****Sharifaxon Xakimova****Farg'ona tumani 4-maktab matematika fani o'qituvchisi*

TAHRIRIYAT MANZILI | EDITORIAL ADDRESS

UZB: 712000. *Farg'ona viloyati, Rishton shahri, Istirohat bog'i ko'chasi 24-uy*
www.pedagogs.uz, E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30

ENG: 712000. *Fergana region, Rishtan city, Park park street 24*
www.pedagogs.uz, E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30

**КОМПЛЕКСНЫЕ ЕДИНИЦЫ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ:
СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ГНЕЗДО И
СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ПАРАДИГМА**

Раметова Бибимарьям Махмудовна

*преподаватель кафедры русского языка и методики
преподавания, факультета русской филологии, УзГУМЯ*

Аннотация. В статье рассматривается понятие комплексных единиц словообразования, а именно словообразовательное гнездо и словообразовательная парадигма. Основное внимание уделяется изучению структуры этих комплексных единиц и их роли в процессе словообразования. Разъясняется, каким образом словообразовательное гнездо и словообразовательная парадигма связаны друг с другом и как они взаимодействуют в процессе образования новых слов. Рассматриваются примеры из русского языка для наглядной иллюстрации концепций словообразовательного гнезда и словообразовательной парадигмы.

Ключевые слова: комплексные единицы, словообразование, словообразовательное гнездо, словообразовательная парадигма, структура словообразования.

Abstract. The article discusses the concept of complex units of word formation, namely the word-formation nest and the word-formation paradigm. The main attention is paid to the study of the structure of these complex units and their role in the process of word formation. It explains how the word-formation nest and the word-formation paradigm are related to each other and how they interact in the process of forming new words. Examples from the Russian language are considered to illustrate the concepts of the word-formation nest and the word-formation paradigm.

Keywords: complex units, word formations, word formation nest, word formation paradigm, structure of word formation.

Словообразование представляет собой уникальную систему языка, тесно связанную с лексикой и морфологией. Определение границ системы синхронного словообразования вызывает разносторонние научные дискуссии.

Система синхронного словообразования представляет собой сложную иерархическую структуру, характеризующуюся противопоставлением единиц различной сложности и структуры. Основной элемент этой системы – производное слово, занимающее центральное положение и состоящее из простых единиц и входящее в более сложные – комплексные единицы.

Комплексные единицы системы словообразования формируются противопоставлениями разного рода: имеющих разные корни, но одно и то же словообразовательное отношение¹.

¹ Современный русский язык. Под ред. В.А.Белошапковой. – М.: Высшая школа, 1989. – С. 332.

Традиционно в русском словообразовании выделяются такие комплексные единицы, как словообразовательная пара, словообразовательная цепочка (СЦ), словообразовательная парадигма (СП), словообразовательное гнездо (СГ).²

Взаимосвязь между однокоренными словами не ограничивается последовательной производностью; они также демонстрируют отношения совместной производности. Совокупность производных, объединенных общей производящей основой и находящихся на одном уровне словообразования, принято называть словообразовательной парадигмой (СП).

Словообразовательная парадигма как комплексная единица в структуре системы словообразования, выделяется на вертикальной оси словообразовательного гнезда. Термин «СП» возник в 1970-х годах в контексте исследования русского словообразования. Первоначальное его использование в докладе Р.С. Манучаряна «Некоторые вопросы сопоставления словообразовательных категорий (на материале русского и армянского языков)» дало толчок дальнейшим исследованиям в этой области. В дальнейшем термин «СП» широко применяется, однако его значение варьируется в зависимости от интерпретации разных авторов: словообразовательная парадигма интерпретируется как словообразовательное гнездо (А.Н.Тихонов); часть гнезда, выделенная на базе радиальных отношений (Н.И.Мичирина); словообразовательный ряд – набор производных слов с одним общим членом – базой или формантом (А.Г.Лыков).

В статье Е.С. Кубряковой и П.А. Соболевой «О понятии парадигмы в формообразовании и словообразовании» (1979) обсуждался вопрос о правомерности применения термина «словообразовательная парадигма» по отношению к словообразовательному гнезду. Авторы выделили ряд признаков, присущих морфологическим парадигмам:

- наличие константной лексемы и переменных формантов;
- наличие константного набора грамматических значений;
- определённое количество переменных грамматических значений, создающих некоторое число мест или позиций в парадигме;
- наличие специального форманта для выражения каждого из грамматических значений;
- все члены парадигмы выделяются из единицы, принимаемой за исходную³.

В данном исследовании авторы задаются вопросом, присущи ли выделенные ими пять признаков морфологических парадигм словообразовательным гнездам, и приходят к отрицательному ответу. Однако они отмечают, что в структуре гнезда можно выделить единицу, по отношению к которой описываются все словообразовательные преобразования и которая остается неизменной на протяжении этих преобразований. Этой единицей является вершина гнезда.

² Тихонов А.Н. Словообразовательный словарь русского языка: В 2-х т. – М.: Русский язык, 1985. – Т.1. – С. 41.

³ Кубрякова Е.С., Соболева П.А. О понятии парадигмы в формообразовании и словообразовании // Лингвистика и поэтика. – М.: 1979. – С. 55.

А.Н.Тихонов под словообразовательной парадигмой понимает «совокупность всех производных одного производящего»⁴. По его мнению, СП является частью гнезда, следовательно, гнездо – это совокупность словообразовательных парадигм.

В своих работах А.Н. Тихонов выявил, что словообразовательная парадигма присуща не только производным словам, но и их производящим основам. Количество парадигм в гнезде напрямую зависит от наличия производящих элементов: сколько производящих, столько и парадигм. Словообразовательная парадигма включает значительное число слов. Особенно большие словообразовательные парадигмы имеют исходные слова. Например, в слове *мазать* – словообразовательная парадигма состоит из 41 производного, *низкий* – 44, *строит* – 116, *высокий* – 120, *два* -265.»

Компоненты словообразовательных парадигм тесно переплетены с общей семантикой, которая проистекает из производящего элемента. Лексические значения производных слов формируются на основе семантики этого производящего. Важно отметить, что различные производные слова могут иметь разные лексические значения, но при этом они все происходят от одного и того же слова. Они связаны между собой по смыслу лишь опосредованно – через семантику производящего. Этим они отличаются от синтагматических единиц – членов словообразовательных пар и словообразовательных цепочек⁵.

С мнением А.Н.Тихонова соглашается Р.М.Шамилова, считая, что СП является элементом гнезда, поэтому по составу производных слов обычно словообразовательная парадигма меньше гнезда⁶. По её наблюдениям, в русском языке имеются случаи, когда словообразовательная парадигма исходного слова и гнезда совпадают по лексическому составу и количеству производных. В этом случаи все производные непосредственно образуются от непроизводного слова и выступают в первой ступени словообразования,

например: <i>банка</i> →	<i>баночка</i> <i>баночный</i> <i>жестянобаночный</i>
--------------------------	---

В заключение можно сделать вывод, СП – это совокупность всех производных одного производящего. Она включает совокупность производных слов, связанных отношениями кодеривации, т.е. параллельной производности от одного производящего.

Например: <i>чита(ть)</i> →	<i>чита-тель</i> <i>чит-ка</i> <i>чит-ение</i>
-----------------------------	--

⁴ Тихонов А.Н. Словообразовательный словарь русского языка: В 2-х т. – М.: Русский язык, 1985. –Т.1,– С.47.

⁵ Там же с. 50.

⁶Шамилова Р.М. Словообразовательные парадигмы непроизводных конкретно-предметных имён существительных в современном русском языке // материалы V Респ. Науч. Конф. – Т.: Укитувчи, 1989 –С. 102-109.

Словообразовательные парадигмы могут иметь исходные (непроизводные) слова, например: картина →

картин-к-(а)
картин-н(ый)
кино/картина

это словообразовательная парадигма первой степени словообразования.

Если в исходе словообразовательной парадигмы стоят производные слова, то в этом случае возникают СП II и последующих ступеней словообразования, например:

рисовать →^I *на-рисовать* →^{II} *нарисова-нн(ый)*

Таким образом, словообразовательная парадигма является ключевым аспектом словообразования в языке, отражая деривационную ёмкость лексемы как необходимое условие её характеристики. «Подобно тому как синтаксические валентности слова служат его важной характеристикой и позволяют обнаружить известное родство между семантическими и сочетаемостными свойствами слова, для полной характеристики языка необходимо и описание «деривационных валентностей» слова»⁷.

Список использованной литературы

1. Земская Е.А. О парадигматических отношениях в словообразовании. – М., 1978.
2. Кубрякова Е.С., Соболева П.А. О понятии парадигмы в формообразовании и словообразовании // Лингвистика и поэтика. – М., 1979.
3. Современный русский язык. Под редакцией Белошапковой В.А. - 2-е издание. – М.: Высшая школа, 1981.
4. Тихонов А.Н. Словообразовательный словарь русского языка. В 2 т. Т.1. – М.: Русский язык, 1985.
5. Шамилова Р.М. Словообразовательные парадигмы непроизводных конкретно-предметных имён существительных в современном русском языке // материалы V Респ. Науч. Конф. – Т.: Укитувчи, 1989 .

⁷ Земская Е.А. О парадигматических отношениях в словообразовании. – М., 1978. – С. 74-75.

YOSH PEDAGOGLARNI SHAXSLARARO MULOQOT FUNKSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Nusratova Munajat Urmanovna

Andijon viloyati Andijon tumani maktabgacha va maktab ta'limi

bo'limiga qarashli 8- umumiy o'rta ta'lim maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoqlarda muloqotchanlikni shakllantirish, o'qituvchiva o'quvchi munosabatiga qo'yiladigan talablar va zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerakligi yoritib berilgan. Shaxslararo muloqot funksiyalaridan foydalanish haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yosh o'qituvchi, muloqot, pedagogik mahorat, pedagogik muloqot, muloqot funksiyalari..

Avvalo, shaxs tushunchasining asl negiziga e'tibor beradigan bo'lsak, shaxs bu idrok qila oluvchi, esda saqlay oluvchi va fikr yuritish qobiliyatiga ega mavjudotdir. Shaxs insonga ta'lluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakati bilan boshqalardan ajralib turadigan, mavjud xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Shaxs ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli hamdir. Insonning falsafiy tafakkuri rivojida shaxs va jamiyat munosabati muhim o'rinda turadi. Ko'plab konsepsiyalar va falsafiy qarashlar mavjud. Shaxs va jamiyat munosabatiga qarashda dastlab mifologik, diniy qadriyatlar ustuvor bo'lgan. Bu kabi ijtimoiy rivojlanish, avvalo dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, ongi, bilimi, tashqi olamga bo'lgan ta'sirlari va ko'nikmalarining ifodasidir. Ya'ni bu “tabiat-inson, jamiyat” munosabatini ko'rsatadi. Asta-sekin “inson-jamiyat” munosabatiga bo'lgan qarashlar shakllanib bordi. Diniy, falsafiy va mifologik qarashlar o'z aksini topa boshladi. Ushbu ikki atamaga falsafiy tarafdin yondashadigan bo'lsak, “Inson”, “Jamiyat” munosabati insonning jamiyatdagi o'rni, inson mohiyat va unga xos xususiyatlar to'g'risida falsafiy yondashiladi. Tarixda esa turli diniy-falsafiy tizimlar shaxs masalasiga o'zgacha yondashilgan. Antik davr falsafasini ko'radigan bo'lsak, shaxsga nisbatan asosan ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazardan qaralganda, xristianlik ta'limotida shaxs maxsus mohiyat, “Individual substansiya”, aqliy xususiyat, nomoddiy ruhning sinonimi deb tushunilgan. Yangi davr falsafasida fransuz faylasufi R.Dekart shaxs to'g'risida dualistik g'oya shakllanishiga yo'l ochib berdi. Bunda avvalo, o'z-o'zini anglash – “Men” tushunchasi bilan birlashib ketdi. Juda ko'plab ta'rif va tushunchalar orasida Amerikalik psixolog G. Ollportning ta'rihi e'tiborga loyiqdir: ”Shaxs bu hayot jarayonida shakllanuvchi individual o'ziga xos psixofiziologik tizimlar shaxs xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u asosida ushbu insonga xos tafakkur va xulq - atvor yuzaga keladi”. Rus psixologi S.L.Rubinshteyn:

“Odam o‘zidagi takrorlanmas xususiyatlariga ko‘ra individualdir. Uni o‘z atrofida gilariga, borliqqa bo‘lgan ongli munosabati, biror faoliyat bilan shug‘ullanishi uning shaxs ekanligidan dalolat beradi” deb ta‘kidlab o‘tadi. XX asr psixologi va filosofi Erik Fromm shaxs tushunchasiga shunday ta‘rif beradi, “Shaxsda shunday yaxlit tug‘ma va orttirilgan psixik xususiyatlar borki, u individni xarakterlab beradi va qaytarilmasligini ifodalaydi. Shaxs xususiyatlari - temperament, qobiliyat, hissiy-irodaviy sifatlar va xarakterni o‘z ichiga oladi. Ammo shaxsning mohiyati-bu uning yo‘nalganligi, uning motivatsiyalari, ijtimoiy munosabatlari va ustanovkalari (ko‘rsatmalari), shu bilan birga albatta o‘z-o‘ziga munosabatdir”. Bizga ma‘lumki, “shaxs” tushunchasi faqat psixologiya fani orqali emas balki, boshqa ko‘plab falsafa, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlar tomonidan ham tahlil qilib o‘rganilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo madaniy munosabatlarga tayyorlash ularni kasbiy rivojlantirish nuqtai nazardan yondashganda amaliy xarakterga ega bo‘lgan o‘ta muhim pedagogik masalalar biri hisoblanadi. Ta‘lim jarayoni sub’ektlariga shaxslararo munosabatlarning ta‘sirini aniqlash mexanizmlarini aniqlash zaruriyati kuchaymoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta‘minlashda shaxslararo munosabatlar dinamikasini aniqlash muhim hisoblanadi. Ushbu muammoning turli yo‘nalishlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, umumiy muammoning bugungi kunga qadar o‘rganilmagan tarkibiy qismini ajratish alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak pedagoglar orasidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rgangan mutaxassislar R.Safarova, N.Dilova, Sh.Doniyorov, G.M.Andreyev, N.N.Obozova, L.YA.Gozmanlar uning turli qirralariga murojaat qilganlar. Shaxslararo munosabatlarning funksiyalarini o‘rgangan mutaxassis N.V.Kazarinova quyidagilarni ajratishga muvaffaq bo‘lgan: axborotli, emotiv, kontakt, qo‘zg‘atuvchi, muvofiqlashtiruvchi, tushunish funksiyasiga ko‘ra, munosabat o‘rgatish va yordam ko‘rsatish funksiyasiga ko‘ra kabilar.

Shaxsning shakllanishi atrofda gilar yordamida amalga oshadi. Ta‘lim jarayonida ko‘rsatiladigan o‘zaro ta‘sir va yordam talabalarning kasbiy rivojlanishlari va tarbiyasiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Kasbiy ta‘lim jarayonida shaxslararo munosabatlarning roli va o‘rnini N.E.Kasatkina, A.R.Luriya, E.YU. Klepsova kabi mutaxasssilarning ishlarida ochib berilgan. Shaxslararo munosabatlar doirasida psixik jarayonlar metajarayon va metatizimlar bilan bog‘liq jihatlari ham tadqiq etilgan. Ushbu yo‘nalishda A.V. Karpov, I.M. Skityaeva, S.M. Xalinla izlanishlarni olib borganlar. O‘quv topshiriqlarning ko‘lamining kengayishi barobarida shaxslararo munosabatlarning dolzarblashuvi kuzatiladi. Raqamli transformatsiyalar sharoitida shaxslararo munosabatlarning ko‘lami torayib bormoqda. Bunday vaziyatlarda shaxslararo munosabatlarning xarakteri va ushbu yo‘nalishda vujudga kelgan tendensiyalarni o‘rganishga nisbatan pedagogik ehtiyoj vujudga kelmoqda. Shu bilan bir qatorda ta‘lim oluvchilarning shaxsida ham bir qator o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Kompentsiyaviy yondashuv doirasida talabalarning o‘z faoliyatlarini boshqarishlari va o‘z harakatlarni muvofiqlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj kuzatilmoqda. Yoshlarni shaxslararo munosabatlarning metodologik asosi sifatida mutafakkir ajdodlarimizning pedagogik ta’limotlari hamda pedagogika nazariyasida mavjud bo‘lgan sotsiodidaktik yondashuvlarni ko‘rsatish lozim. Biz quyida shaxslararo munosabatlarni rivojlanishiga asos bo‘ladigan holatlarni tahlil qilishga harakat qildik. Shaxslararo munosabatlar o‘zini qonun qoidalar tizimi, stereotiplar, natijalariga ega. Bu qoidalar va stereotiplar shaxslarning o‘zaro munosabat jarayonida biri birlariga ta’sir ko‘rsatishlarini ta’minlaydi. Shaxslararo munosabatlar jarayonida talabalar muayyan ijtimoiy rollarni bajarish ko‘nikmasini egallaydilar. Jumladan ular o‘qituvchi va o‘quvchi mavqeini aniqlashga harakat qiladilar. Shaxslararo munosabatlar jarayonida talabalar o‘zlarining shaxsiyatlarini shakllantirishga muvaffaq bo‘ladilar. Shaxslararo munosabatlarning rivojlanish jarayonida sub’ektiv xarakterdagi kechinmalar, o‘zaro munosabatlar tarkib topadi. Shaxslararo muloqot jarayonida talabalarning o‘zaro tengligi ta’minlanadi va qo‘llab-quvvatlanadi. Shunda ular o‘zaro munosabatga kirishish uchun qulay sharoitlarni izlaydilar. Bunday sharoitlar ularning shaxsiy o‘ziga xosliklarini, o‘zlarini bilish va anglashlarini, namoyon etishlarini ta’minlash imkonini beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan muloqot jarayonida talabalar o‘z suhbatdoshlarining betakrorligi, o‘ziga xosligini anglashga muvaffaq bo‘ladilar. Shuningdek, uning hissiy holati, shaxsiy tavsifnomasi hamda ularning o‘z o‘zini baholash darajasini o‘rganishga muvaffaq bo‘ladilar. Shaxslararo munosabatlarning asosini talabalarning o‘zaro hamkorligi tashkil etadi. Bunday hamkorlik muloqot jarayonida vujudga kelgan bo‘lib, bunday muloqot jarayonining ishtirokchilari bir-birlariga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadilar: nuqtai nazarlari, ustanovkalari, stereotiplarini o‘zgartiradilar. Shaxslararo munosabatlarning asosini talabalarning emotsionalliklari, motivatsion jarayonlar, qadriyatlar va shaxsiy fikrlari tashkil etadi. Shaxslararo muloqot tushunchasi to‘liq ma’noda shaxslararo aloqa, shaxslararo kommunikatsiya, shaxslararo birgalikdagi faoliyat, o‘zaro harakatlar va muloqotni o‘z ichiga oladi. Shaxslararo kommunikatsiya o‘zida fikr almashinishning turli usullari shaxslararo axborot almashinish hamda qayta ishlash usullarini mujassamlashtiradi. Shaxslararo birgalikdagi munosabatlar esa muloqot jarayonidagi sheriklik, o‘zaro munosabatlardan iborat. Ular birgalikdagi hamda yakka tarzdagi faoliyatning barcha turlarini tadqiq etadilar. Mazkur harakatlar birgalikda pozitiv o‘zgarishlarni amalga oshirish, faoliyat usullarini egallash, o‘zaro munosabatlar va ustanovkalarni o‘zgartirishga asos bo‘ladi. Shaxslararo munosabatlar shuni angalatadiki, talabalar orasidagi aloqalar hissiy emotsional yo‘nalishga ega bo‘lib, bunday yo‘nalishsiz shaxslararo muloqotni amalga oshirish imkonsiz.

Shaxslararo munosabatlarning funksiyalari:

-aloqalar o‘rnatish, muloqotdoshlar qabul qilish va axborotlarni uzatishga tayyor, shuningdek muloqotni qo‘llab quvvatlashga ham tayyor, o‘zaro axborot almashinish:

-muloqotdoshlar o‘zaro axborot, fikr, echimlar, g‘oyalarni almashinishga moyil bo‘ladilar.

-Muloqotga turtki berish: bunda talabalar muloqotga kirishi uchun yo‘naltiruvchi usullarni qo‘llaydilar, o‘z suhbatdoshlarini muloqotga undaydilar, muloqotdoshlarini muayyan xarakterlarini bajarishga yo‘naltiradilar.

Muloqotni funksiyasi: muloqotdoshlar bir birlarini bir xilda tushunishga muvaffaq bo‘ladilar, suhbatdoshlari taqdim etgan axborotlarning mohiyatini anglab etadilar, qonun qoidalar, ustanovkalar rejalar hamda holatlarni tushunib etadilar.

Muloqot jarayonidagi his-tuyg‘ularning ifolash funksiyasi: muloqotdoshlar bir birlarini faolikka undaydilar, muayyan hissiy kechinmalarini boshdan kechiradilar, o‘zlarining shaxsiy holatlariga qarab yo‘nalish oladilar hamda suhbatdoshlarini o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Munosabat o‘rnatish funksiyasi: natijada ular shaxslararo munosabatlar jarayonida o‘z mavqelarini anglab etadilar. **Kommunikativ muloqot jarayonida quyidagilar alohida farqlanadi:** verbal hamda noverbal kommunikatsiya.

Verbal kommunikatsiya nutq vositasida axborot almashinishga asoslanadi. Bunda ular nutq va ovoz imkoniyatlaridan foydalanadilar. Nutq axborot almashinishning eng qulay vositasi hisoblanadi. Nutq vositasida taqdim etilayotgan ma’lumotning mohiyati oydinlashadi.

Noverbal kommunikatsiya doirasida esa axborot almashinishning boshqa bir qator usullardan foydalaniladi. Ular belgilar tizimi va nutqning yordamchi vositalar, pedagogik jarayonlarda qo‘llaniladigan mimikalar, ko‘z orqali aloqa o‘rnatish, shu bilan bir qatorda shaxslararo muloqotga zamon va makon munosabatlari ham sezilarli ta’sir ko‘rstadi. Professor-o‘qituvchilar bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda muloqotning barcha vositalaridan birdek foydalanishlari lozim.

Muloqot jarayoni o‘ziga xos ravishda murakkab bo‘lib, bunda uch xil bosqich mavjud. T. Shibutani “Ijtimoiy psixologiya» kitobida (darsligida) “Agar odam o‘ziga bo‘lsa ham o‘zini anglasa, demak, o‘z-o‘ziga ko‘rsatmalar bera oladi”, deb to‘g‘ri yozgan edi. Odanning o‘z-o‘zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o‘z-o‘zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o‘zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan, suxbatlashishda jiddiy qiyinchilikni boshidan kechiradi deyish mumkin. Demak, boshqalar bilan muloqot - muloqotning ikkinchi bosqichidir. Uchinchi bosqich avlodlar o‘rtasidagi muloqot. Bu muloqot tufayli har bir jamiyatning o‘z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlarini mavjud bo‘ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg‘or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta’lim-tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar. Pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o‘rtasida

amalga oshiriladigan murakkab o‘zaro ta’sir jarayoni). Har bir muloqot turining o‘z qonun-qoidalari, ta’sir usullari va yo‘l-yo‘riqlari borki, ularni bilish har bir kishining, ayniqsa, odamlar bilan doimo muloqotda bo‘ladigan pedagoglarning burchidir desak adashmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Hasanov, D.Abdumadjidova, N. Atayeva. Psixologiya (psixologiya nazariyasi va amaliyoti asoslari) Ma’ruza matni-Toshkent 2016, 5-bet. 3. S.L.
2. Rubinshteyn. Umumiy psixologiya asoslari 2006.
3. Dilova N.G. (2018). Buyuk ajdodlarimizning ta’limotlarida mujassamlashgan o‘qituvchi bilan o‘quvchilar xamkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim. №3, 63-68 b
4. Safarova R.G. Didactic conditions of forming creative thinking skills in student. International scientific and practical conference “trends of modern science and practice”. Ankara, Turkey 2023.
<https://zenodo.org/badge/DOI/10.5281/zenodo.7786879.svg>

BOLA SHAXSINI SHAKLLANISHIDA YOSH DAVRLARINING AHAMIYATI

Toshmatova Kibriyo Hamidullayevna

*Andijon viloyati Andijon tumani maktabgacha va maktab ta’limi
bo’limiga qarashli 32-umumiy o’rta ta’lim maktabi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bola shaxsini shakllanishida yosh davrlarining ta’siri va ahamiyati, har bir davrning o’rni va rivojlanish jarayoniga bog’liqligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: Yosh davrlari, bola, muloqot, rivojlanish, psixologiya.

Har qanday davr, vaqt va jamiyatda insonlarning millat va xalq sifatida rivojlanishida albatta ta’lim-tarbiya, shaxslararo muloqot madaniyatining rivojlanishi muhim omil hisoblanadi. Barcha e’tibor va resurslar ta’limga qaratilgan hozirgi jamiyatda biz ham yashab faoliyat olib borayabmizmi demak, shaxs sifatida bu islohotlarga bee’tibor turishga qaysidir ma’noda haqqimiz yo’q.

Bola shaxsini rivojlantirishda yosh davrlari psixologiyasi. Muayyan bir yosh davriga hos bo’lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo’ladi. Bolalarning tarbiyasiga to’g’ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o’qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga hos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o’sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo’ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyilar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o’tganlar. Inson shaxsinig tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning muammosi o’z mohiyati jihatidan g’oyaviy xarakterga ega, Shu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan turli oqimlar, yo’nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim biogepetik kontseptsiya, nazariya bulsa, ikkinchi oqim sotsiogenetik kontseptsiyadir.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan. Bola psixik xususiyatlarining tug’ma tabiati haqidagi ma’lumot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. Mazkur ta’limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo’l bilan azaldan belgilanib, inson

organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta’kidlaydi. Ma’lumki, nasliy xususiyatlar tug‘ma yo‘l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo‘lishiga qaramay, bu oqim namoyandalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari “ichki qonunlar” asosida, yani nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, biologik omillarga bog‘liqdir, deb ta’kidlaydilar.

Biogenetik ta’limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo‘yilganligini, o‘quvchi imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so‘ng ta’lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste’dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olishga zarur deb ta’kidlaydilar.

Chunonchi, bu yo‘nalish tarafdorlaridan, amerikalik psixolog E.Torndayk o‘quvchilarning “tabiiyaviy kuchlari” va “tug‘ma mayllar”i psixik rivojlanishning yetakchi omili qilib ko‘rsatib, muhitning, ta’lim-tarbiyaning ta’siri - ikkinchi darajalidir deb aytadi.

Avstraliyalik psixolog K.Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotini emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir, deb ta’kidlaydi. Amerikalik pedagog va psixolog Dj.Dyui-inson tabiatini o‘zgartirib bo‘lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug‘iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo‘lib, bazida o‘zgarishi, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchi mezondir, deb hisoblaydi. Bolaning o‘ziga hos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir hil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig‘inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur. Venalik vrach-psixolog Z. Frey mazkur oqim namoyandasi sifatida shaxsning faolligini, uni harakatga keltiruvchi kuchlarni quyidagi tarzda tushuntirishga intiladi. Z. Freydning fikriga ko‘ra, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo‘ladi. Z. Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan bog‘laydi. Biroq instinktiv mayllar jamiyatda xuddi hayvonot olamidagidek erkin namoyon bo‘lavermaydi. Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinktiv mayllarni (ya’ni, jinsiy mayllarni) juda ko‘p jihatdan cheklab qo‘yadi. Oqibatda odam o‘zining ko‘p instinktlari va mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo‘ladi. Uning ta’limotiga ko‘ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo‘qolib ketmaydi, balki bizga noma’lum bo‘lgan ongsizlik darajasiga o‘tkazilib yuboriladi. Bolaning individual – o‘ziga hos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga hos xususiyatini o‘rganish metodikasini bilish muhim.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga hos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o‘quvchilari bilan 10-sinf o‘quvchisini tenglashtirib bo‘lmaydi. **Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo‘linadi:**

1. Go‘daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo‘lgan davr.
2. Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha ta‘lim yoshi – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar –7-11-12 yoshgacha.
5. O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar) 14-15 yosh.
6. Katta yoshdagi maktab o‘quvchilari (o‘spirinlar) – 16-18 yosh.

Kichik maktab yoshida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘irligi jihatdan uning tashqi ko‘rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi. Jismoniy o‘rishiga hos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o‘rganishga qiziquvchan bo‘ladi. Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o‘quvchilariga emotsionallik hos, ularning fikrlashi obrazli bo‘ladi, his-tuyg‘ulari mazmuni o‘zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

O‘rta maktab yoshi (o‘smirlik 12-15 yosh). O‘smirlikning murakkabligi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bolaning o‘sishi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe‘l-atvoriga ta‘sir etadi. O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba‘zilarining o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi. **Hozirgi davr o‘smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko‘zga tashlanadi:**

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to‘garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o‘tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o‘qishga qiziqishi ortadi.

2. O‘z-o‘zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o‘zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi. Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda o‘smir harakterida murakkab qaramaqarshiliklar ham mavjud bo‘ladi.

Bu o‘smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi. Turli to‘garaklarga 21 foiz o‘smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug‘ullanadi. 40 foiz o‘quvchida sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo‘q. Eng muhim qiziqish – teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o‘smir tomosha qiladi. Ular oddiy kunni o‘z

ixtiyorlari bilan qanday o‘tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o‘smir vaqtini o‘z holicha o‘tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko‘radi, 50 foizi sport bilan shug‘ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga bordigan o‘smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi. O‘smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta’sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti “qiyin” vazifalarga to‘liq bo‘ladi. Bu yoshda o‘smirlar kattalar oldida o‘zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan talab o‘sadi. “Dangasa”, “qo‘pol”, “bee’tibor”, “qobiliyatsiz” degan kattalarning baholarini ular og‘rinib qabul qiladilar. O‘smir yoshida o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e’tibor berish lozim. O‘z-o‘zini tarbiyalash natijasida o‘g‘il bolalar kuchli, erkin, e’tiborli, jasur; qizlar esa – o‘ta ko‘nikuvchan, kamtar va jiddiy bo‘la boshlaydilar. Shuning uchun o‘smirga o‘z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o‘smirda burch hissi, mas’uliyatni his etish, vazminlik paydo bo‘la boshlaydi. Muhimi, o‘smir shaxsini hurmat hilish, kamsitmaslik, katta bo‘lib qolganligini tan olish zarur.

Katta maktab yoshi – o‘spirinlik davri (15-18 yosh). Bu davr o‘spirinlarning ilk balog‘atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O‘spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi. his-tuyg‘ularida ham o‘zgarish yuz beradi. O‘z-o‘zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda ular o‘rtasida munozaralar o‘tkazish yaxshi natija beradi. O‘spirinlar o‘z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o‘spirinning barcha intilishlari ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Ularda o‘quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi. O‘spirinlik bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o‘qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g‘o‘r fikrlari va dunyoqarashlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi. Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o‘zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo‘ladi.

O‘zini kattalardek his etish, o‘ziga hosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o‘ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o‘z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o‘z qiziqishlari bilan o‘lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg‘araz, to‘g‘ri yo‘nalish berishlari o‘ta muhim. Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa

boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E. G‘oziyev «Umumiy psixologiya Psixologiya» mutaxassisligi uchun darslik Toshkent- «Unversiteti»-2017 yil
2. Amaliy psixologiya (N.Boymurodov) Toshkent-2015
3. Umumiy psixologiya (N.Zufarova) Toshkent-2018
4. Umumiy psixologiya (M.Xaydarova) Toshkent-2018
5. www.ziyonet.uz

TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION
TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Yo'ldoshev Sarvarbek Uktamboy o'g'li
Urganch davlat pedagogika instituti
Musiqqa ta'limi va san'at mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada musiqa madaniyati fanini o'qitishdagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish mohiyati va tushunchalari haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: musiqa savodxonligi, musiqa tinglash, musiqiy ritmik harakatlar, elektron pochta, “Google + hangouts, Skype”.

MODERN TECHNOLOGIES AND INNOVATIVE TECHNOLOGY IN
EDUCATION, TECHNOLOGY AND ITS THEORY

Urgench state pedagogical institute
Music education and specialty
Yuldashev Sarvarbek Uktamboy's son,
graduate student of the 2nd stage

Abstract: The article deals with views and discussions of new technologies in teaching music culture.

Keywords: music literacy, music listening, musical rhythmic drawing, e-mail, “Google + hangouts, Skype”.

Yurtimizda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham keng qamrovli yangilanishlar va ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunga keng jamoatchilik muhokamasi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni PF-60 “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”¹ tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshiriladigan dasturi tasdiqlandi.

Yurtimizda ta'limga berilayotgan e'tibor va o'zgarishlar yildan-yilga o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Ma'lumki, ta'lim sifati samaradorligini oshirish uchun islohatlar va ilmiy tadqiqot faoliyatining o'rni ahamiyatlidir. Bugungi kunda yosh avlodaga nafaqat ta'lim berish ularni kelgusi katta hayotga tayyorlash ham lozim. Buning uchun o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun turli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

ko‘nikma va tajribalar muhim. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun biz rivojlangan davlatlar ta‘lim tizimini o‘rganib tahlil qilib, ijobiy xususiyatlarini o‘zimizning qadriyatlarimizga moslashimiz lozim. Bugungi kunda barchamizga juda zarur bo‘layotgan ta‘limda multimedia vositalaridan foydalanib dars samaradorligini shakllantirish o‘zining natijasini ko‘rsatmoqda.

Ta‘lim mazmunini yangilash, takomillashtirish va sifat ko‘rsatkichlarini oshirish barobarida o‘qituvchi – murabbiylarning malakasini oshirish, ularning ilm – fan taraqqiyoti bilan hamqadam borishini, ayniqsa barcha sohalarga keng kirib kelgan va qo‘llanilayotgan axborot texnologiyalari, interfaol usullardan unumli foydalana oladigan, kompyuter bilan erkin muloqot qila oladigan va o‘z faoliyatida, dars samaradorligini ta‘minlashga tadbiq eta oladigan darajada tayyorlash, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda yangi o‘quv o‘rinlarini yaratish va maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha chora tadbirlar bugungi kunning muhim vazifalaridandir.

O‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishda ta‘limga multimedia vositalaridan mohirona foydalanish muhim o‘rin tutadi. Zero, an‘anaviy ta‘limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsalar, rivojlantiruvchi ta‘lim mezonlariga muvofiq bilimlarni o‘quvchilarning o‘zlari o‘rganishi, tahlil qila olishi, xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishiga yo‘naltirilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan umumiy o‘rta ta‘lim tizimida multimedia vositalaridan foydalanish, ularni amaliyotga keng tadbiq etish ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi².

Ta‘lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muammosi bo‘yicha ilmiy-adabiy manbalarda ko‘rsatilgan yondashuvlarni ko‘rib chiqsak: S. N. Sazonova va T. V. Volosovets, barcha sub’ektlarning maqsadli faoliyatini boshqarish ta‘lim muassasasining maqbul ishlashi, majburiy rivojlanishi, shakllanishi va barqarorlashishini ta‘minlaydi, deb hisoblashadi³.

Kasbiy va pedagogik yondashuvlardan kompetentsiyalarning samarali amalga oshirilishini ta‘minlaydigan shaxsiy va kasbiy fazilatlar to‘plami sifatida qaraladi. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv so‘nggi yillarda tobora ommalashib borayotgan pedagogik fikrning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

² Альмяшева Л.В. Социализация молодежи посредством студенческих объединений // Вестник Челябинского государственного университета. - Челябинск. - 2013. – С. 141-143.

³ Инновации и современные технологии в системе образования: материалы II международной научно-практической конференции 20–21 февраля 2012 года. – Пенза – Ереван – Шадринск: Научно-издательский центр «Социосфера», 2012. – 388 с.

V. N. Vvedenskiy quyidagilarni ta’kidlaydi:

➤ o‘qituvchining kommunikativ kompetentsiyasi professional integral sifat sifatida. Ushbu kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismlari: ekstraversiya, to‘g‘ri tashkil etish qobiliyati va fikr-mulohaza, nutq qobiliyati, eshitish va tinglash qobiliyati, hissiy barqarorlik;

➤ axborot kompetentsiyasi, shu jumladan o‘zi, boshqa o‘qituvchilar va talabalarning ish tajribasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar miqdori;

➤ o‘qituvchining o‘z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyatining mavjudligini o‘z ichiga olgan tartibga soluvchi kompetentsiyasi.

Bunga quyidagilar kiradi: rejalashtirish, maqsadlarni belgilash, barqaror faoliyat va safarbarlik, aks ettirish, faoliyat natijalarini baholash. O‘qituvchi faoliyatining asosiy belgilovchi omillari o‘qituvchining intellektual va pedagogik kompetentsiyasining axloqiy qadriyatlarini bo‘lib, u sintez, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, konkretlashtirish va boshqa fikrlash jarayonlari bo‘yicha ko‘nikmalar to‘plami sifatida qaraladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik, fantaziya, o‘xshashlik kabi qaliy fazilatlar.

Kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar to‘plami bilan belgilanadigan o‘qituvchining operatsion kompetentsiyasi: *tashkiliy, bashoratli, proeksion, fan-uslubiy, ekspert, pedagogik improvizatsiya ko‘nikmalari* [10]. Yu. I. Kalinovskiy kompetentsiya tushunchasiga yettita yetakchini ajratib, kasbiy ko‘nikma va qobiliyatlarni kiritadi:

- **fundamental** (falsafiy va antropologik bilimlarning predmetli psixologik va pedagogik bilimlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydigan fan asoslari bo‘yicha nazariy bilimlarning mavjudligi, fan bilimlarining kengligi va chuqurligi, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati);

- **axborot** (axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati va axborot makonida harakat qilish qobiliyati);

- **kommunikativ** (bag‘rikenglik va ijtimoiy intellekt);

- **tadqiqot** (pedagogik aks ettirishni tashkil qilish qobiliyati va qobiliyati);

- **integral** (tafsilotlarni qo‘shish orqali ob‘ektni takomillashtirish qobiliyati);

- **amaliy** (maqbul qarorlar qabul qilish va ko‘plab shartlar asosida to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyati);

- **boshqaruv**⁴.

Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, musiqiy ta’lim muammolarini hal qilish o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidan boshlanadi. O‘qituvchining pedagogik kasbiy mahorati samarali va sifatli o‘sishtirish va pedagogik kompetentsiyalarni o‘z

⁴ Калиновский, Ю.И. Развитие социально-профессиональной мобильности педагога в контексте социокультурной образовательной политики региона. Дис. д.пед.наук [Текст] / Ю.И. Калиновский – С.Пб., 2001.

vaqtida o‘zlashtirmasdan mumkin emas. Shunday qilib, nafaqat ma’lum bir sohadagi asosiy bilimlarga, balki umumiy madaniyatga, shu jumladan axborot madaniyatiga asoslangan bunday ta’lim dolzarbdir. Shu munosabat bilan, har bir o‘qituvchi zamonaviy innovatsion texnologiyalari sohasida tayyorgarlikka muhtoj deb ta’kidlashimiz mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati jarayonida o‘quvchilarining turli xil musiqiy faoliyat turlarida rivojlanishiga qaratilgan:

- musiqa savodxonligi;
- musiqa tinglash;
- vokal ijro etish;
- musiqiy ritmik harakatlar;
- bolalar musiqa asboblari bilan chalish.

Yu.M. Gorvitsning ta’kidlashicha, texnologiya va ma’lumotni mohirona va samarali biladigan odam boshqacha, yangi fikrlash uslubiga ega, yuzaga keladigan muammolarni baholashga, o‘z faoliyatini tashkil etishga tubdan boshqacha yondashadi⁵.

Zamonaviy talablarga asoslanib, musiqa o‘qituvchilarining axborot kompetentsiyasini rivojlantirishning asosiy usullarini aniqlash mumkin:

- AKTdan foydalanish uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirish;
- ovoz va grafikani qayta ishlash va ko‘paytirish, fotosuratlar va videolarni tahrirlash, Microsoft Office yordamida ishlash uchun maxsus dasturlardan foydalangan holda vizual va didaktik qo‘llanmalar va mahsulotlarni tayyorlashning uslubiy asoslarini majburiy o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda internet, elektron va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
- ijodiy guruhlar va uslubiy birlashmalarda ishlash;
- eksperimental va tadqiqot faoliyatini tashkil etish;
- pedagogik texnologiyalar yangiliklarini o‘zlashtirish, innovatsion faoliyat;
- pedagogik qo‘llab-quvvatlashning turli shakllaridan foydalanish;
- kasbiy mahorat pedagogik tanlovlarida, mahorat darslarida, konferentsiyalarda, forumlarda ishtirok etish;
- o‘zingizning pedagogik tajribangizni umumlashtirish va tarjima qilish.

Ammo musiqa o‘qituvchisi ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini anglamasa, sanab o‘tilgan usullardan biri samarali bo‘lmaydi.

⁵ Горвиц, Ю.М. Новые информационные технологии в дошкольном образовании. [Текст] / Ю.М. Горвиц, А.А. Чайнова, Н.Н. Поддъяков. – М.: ЛИНКА-ПРЕСС, 1998. –328 с.

Bugungi kunda axborotlashtirishni ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy usullaridan biri deb hisoblash mumkin. Ta’lim bilan bog‘liq axborotlashtirish zamonaviy dunyoda dolzarb va muhim masala bo‘lib, zamonaviy jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qayd etilgan. Bu jamiyatning tobora kengayib borayotgan intellektual salohiyatidan faol foydalanishni, axborot texnologiyalarini hayotning barcha sohalarini rivojlantirish bilan birlashtirishni ta’minlaydi va jamiyatning har qanday odamiga ishonchli ma’lumot manbalariga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Axborotlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq jamiyatdagi o‘zgarishlar jamiyatning sifat jihatidan yangi axborot muhitini yaratishga va ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirishga yordam beradi, bu esa shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Axborot tushunchasi odamlar tomonidan og‘zaki, yozma yoki boshqa yo‘l bilan uzatiladigan ma’lumotlar sifatida talqin qilinishi mumkin. Hozirgi vaqtda zamonaviy innovatsion axborot texnologiyalari tobora kengayib bormoqda va ularni qo‘llash sohalari kengaymoqda.

Axborot texnologiyasi-ob’ekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsuloti) holati to‘g‘risida yangi sifatli ma’lumot olish uchun ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish vositalari va usullari to‘plamidan foydalanadigan jarayon. Axborot texnologiyalarining xususiyatlari jamiyatning axborot resurslaridan faol va samarali foydalanishni o‘z ichiga oladi, axborot jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirishga yordam beradi. Hozirgi bosqichda axborot texnologiyalari odamlar o‘rtasidagi axborot o‘zaro ta’siri modelini amalga oshirishda va ommaviy axborot vositalarini tayyorlash va tarqatish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalari ta’lim tizimini rivojlantirishda va jamiyatni intellektualizatsiya qilish jarayonida asosiy o‘rinni egallaydi.

Axborot texnologiyalarini joriy etishning asosiy maqsadi ta’lim muassasasining yagona axborot makonini, o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari: *ma’muriyat, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari* ishtirok etadigan va axborot darajasida bog‘langan tizimni yaratishdir. Buni amalga oshirish uchun an’anaviy o‘qitish usullari va zamonaviy axborot texnologiyalarini birlashtira oladigan tayyorlangan pedagogik kadrlar kerak. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim sohasi bilan o‘zaro ta’siri o‘qituvchilarga ta’limning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatidan o‘zgartirishga imkon beradi. Ushbu texnologiyalarning ta’limdagi asosiy maqsadi axborot jamiyatida o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim jarayonini individuallashtirish, insonparvarlashtirish va rivojlantirishdir va ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim sifatini oshirish⁶.

⁶ Осипова, О.П. Формирование ИКТ – компетентности учителя начальных классов [Текст] / О.П. Осипова // Дополнительное образование. 2006. – № 6. - С. 34 – 39.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyasi - bu ma'lum bir natijaga erishishga qaratilgan turli xil axborot manbalariga (*elektron, bosma, instrumental, inson*) va qo'shma faoliyat vositalariga kirish uchun maxsus dasturiy va texnik vositalardan foydalanadigan pedagogik texnologiya.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotidagi aloqa texnologiyalarining sub'ektlari uni bevosita amalga oshiradiganlardir, ya'ni o'qituvchilar. Kommunikativ texnologiyalarning ob'ektlari to'g'ridan-to'g'ri kommunikativ ta'sirga yo'naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalardir. Kommunikativ texnologiyalarni ishlab chiqish bir necha bosqichlarga ega:

– **birinchi bosqich** - maqsad va vazifalarni shakllantirishni, ob'ektni aniqlashni ta'minlaydigan nazariy;

- **ikkinchi bosqich** – uslubiy, bu reja tuzish, usullar, usullar va vositalarni tanlash va asoslash bilan bog'liq;

– **uchinchi bosqich** - pedagogik loyihaning amaliy faoliyatini amalga oshirishni ta'minlaydigan protsessual bosqich.

Kichik yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi (Montessori metodikasi bo'yicha) Agar biz bugungi kunda «Zamonaviy maktablarda o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasi qay ahvolda?» degan savolni bersak, Montessori bizning savolimizga shunday javob berar edi: «Maktab o'qituvchisi o'quvchi intellektining quruvchisi hisolanadi. O'quvchi o'qituvchi imkon bergan darajada shakllanadi. O'qituvchi nimaniki bergan bo'lsa, o'shani biladi. O'qituvchi nimani tushuntirgan bo'lsa, o'quvchi undan ko'p ham, kam ham narsani tushunmaydi. O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini maqtashganda bu maqtovlar bevosita o'qituvchiga ham tegishlidir. Sinfning yutug'i — uning muvaffaqiyatidir. Uning mahorati shundaki, o'quvchilarga yetkazishni zarur deb bilgan darsini bolalarning diqqat bilan tinglashlaridir». Aytilgan bu so'zlar ayni haqiqat. Xo'sh, bular boshlang'ich maktabga tegishlimi yoki bolalar bog'chasiga aloqador? O'qituvchi, tarbiyachi, xullas, bolalarni tarbiyalovchilarning barchasi ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat yurituvchi asosiy shaxs hisoblanadilar. Shuningdek, ularning ruhiy rivojlanishida ham cheksiz quvvat manbai hisoblanadi. Bolalarga faqatgina kattalar tomonidan yoki o'z xohishi bilan yoxud belgilangan dasturga ko'ra taqdim etiladigan «taomni» qabul qilishgina qoladi, xolos. Va shu o'rinda «erkinlik», «erkin tarbiya» deb ataluvchi tushunchani yuzaga keltiradi. «Erkinlik» masalasi qancha ko'p muhokama qilinmasin, bola baribir qaram bo'lib qolmoqda. Hattoki unga yuqori darajada e'tibor ko'rsatilganda ham u erkin emas, balki «qarovsiz»dir. Ya'ni, uning intellekti qarovsiz, «yoqimsiz taomni tanovvul» qilishga majbur. Natijada rivojlanish uchun keng erkinlik beruvchi hissiyotlarga bo'ysunadi. Faqatgina shunchaki harakatlanadigan bola erkin hisoblanmaydi. Balki o'z harakatlarida aniq o'ylangan maqsadga ega bo'lgandagina muayyan tashkil etilgan sharoitda o'z shaxsini rivojlantirishga va shakllantirishga qodir. Shaxsiy rivojlanishi uchun uning o'zi mustaqil ish tanlay oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biror bir ishga uzoq vaqt davomida o'z intilishi bilan katta intellektual, maqsad bilan sho'ng'ib ketadi. Fikrni jamlab predmetlarni (sensor materiallarda) tanlash imkoniyatini, muhokamasi va tuzatish imkoniyatini qo'lga kiritadi. O'z salohiyatini yuzaga chiqarib, uni yuksaltirish uchun turtki bera oladigan bolagina erkin hisoblanadi. Bolani shaxsiy intellekt maktabiga joylash bilan biz uning turini muqarrar o'zgartiramiz; «bolalik psixologiyasi» nomida izohlanuvchi bola haqidagi barcha tasavvurlar, agar bolalarni Montessori sharoitida uzoq vaqt kuzatadigan bo'lsak, sezilarli darajada ba'zi bir munosabatlarda tamomila o'zini oqlamaydi. Uch yoshga yaqin yosh bola birinchi bor bolalar bog'chasiga kelganda unga xuddi hamma narsani yozish mumkin bo'lgan «oppoq qog'oz» degan tasavvur bilan emas, aksincha, tashqi olam ta'sirida to'plangan tartibsiz taassurotlarga ega, deb yondoshishimiz zarur. «Uch yoshli bola kechinmalarida turli chalkashliklardan iborat og'ir bo'shliq mavjud

bo'ladi», deydi Montessori. Aksariyat hollarda oxiri uyqu bilan tugaydigan sababsiz injiqliklar va yig'i, uning ustiga yopiriladigan tashqi olamdan olingan hisobsiz taassurotlar hisobiga yuzaga keladi. Hyech kim xayoliga ham keltirmaydiki, sayr bola uchun mehnat hisoblanadi. Ayniqsa, hali uning sezgilari layoqatli bo'lmagani holda ko'rish va eshitish orqali xatolarini to'xtovsiz to'g'rilab boradi. Narsalarni kuzatib ko'zi bilan aniq baholay olmasligi uni o'ta toliqtiradi. o'z yoshligini eslay oladiganlarning hammasi buni tasdiqlashi, yosh bolalarni kuzatuvchi har bir e'tiborli odam buni har qadamda ko'rish mumkin. Biz bolaga bu og'ir holatdan chiqib olishga yordam berishimiz kerak, unga dunyoni chalkashlik sifatida emas, balki tabiatan nihoyatda intiluvchanligini hisobga olgan holda, tabiatning qat'iy tartibda ekanini anglashga imkon berishimiz lozim. Bunga yaqinlashish uchun esa bola atrofda tabiat qoidalari asosida boshlanuvchi uning ichki uyushqoqligi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lgan nimadir topishi kerak. Aytaylik, xuddi hasharotdek to'g'ridan-to'g'ri o'z shakl va mohiyatidan kelib chiqib, ranglarning shakli va sifatini topish kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, biz bola uchun aniq belgilangan sharoit yaratib berishimiz va unga intellektual mustaqil mashqlar uchun zarur tashqi vositalarni berishimiz kerak. Bu vositalar tasodifiy yoki o'qituvchi xohishi bilan tanlangan bo'lmasligi kerak. Balki bola uchun aqliy rivojlanishda mustaqil mashqlar obyekt bo'lib xizmat qiluvchi, Montessorining sezgi a'zolarini tarbiyalashga qaratilgan didaktik materallari bo'lishi, tajriba orttirilishi natijasida sekin-asta taqdim etishi kerak. Dastlab intellektning rivojlanishi uchun faktlarning to'planishi va ularning farqlanishi zarur bo'ladi. Bolaga bu asosda o'z intellektini oshirishga ko'maklashish faqatgina mashqlarda «o'zini-o'zi boshqarish» bilan amalga oshiriladi. «Boshqa bir odam bizning o'rnimizga mashq qilib, bizga mahorat orttirish imkonini berishi aqlga sig'maydigan holatdir», deydi Montessori. Sensor materiallardagi sezgiga doir mashg'ulotlar bolalarga ajratish va tavsiflash (klassifikasiyalash) imkonini beradi. Hozirgi kunda ba'zi narsa-buyumlarni ularning sifatidan bo'lak boshqa belgilariga qarab ajratish imkoniyati mavjud emas. Montessorining sensor materiallari ham narsabuyumlar sifatini: o'lchami, shakli, rangi, yuzaning silliqligi va g'adir-budurliqi, og'irligi, harorati, hidi, shovqin, ovozini tahlil qiladi va ko'rsatib beradi. Predmetlarning sifatigina bir-biridan farqlanadi, ularning o'zi emas, chunki bu sifatlar predmetning belgisini bildiradi. Misol uchun Montessori materiallaridagi ixtiyoriy predmetni olaylik, u favqulodda oddiy, bola diqqatini o'zida jamlovchi sifatlarga ega. Unda bolaning e'tiborini tortuvchi sifatlar mavjud bo'lib, uni qiynab qo'yuvchi barcha ortiqcha belgilar olib tashlangan. Masalan, balandlik va hajmni farqlash imkonini berish uchun bolaga shunchaki hajman har xil bo'lmagan silindir, kub va prizmalar berish kerak. Qo'ziqorin, tuxum yoki jo'jaxo'roz va shunga o'xshash narsalar berilmaydi. Shaklni farqlash uchun tekis geometrik shakl va jismlardan foydalaniladi. Uychalar, gullar va olmalar bu tarkibga kirmaydi. Rangni farqlashda esa qo'g'irchoq,

gul yoki qo'lda yasalgan o'yinchoqlar emas, balki oddiy rangli shoyi qirgimlari kifoya. Ranglar tartibini anglatuvchi yo'nalishda joylashgan bu predmetlar ranglarning sifatiga qarab ham ajratiladi. Bola mashq qilar ekan, bu sifatlarni farqlab beradi: endilikda u predmetlarning ko'proq yoki kamroq, baland va past, yo'g'on va ingichka, ko'p va kam bo'lishi mumkinligini farqlaydi. Ranglar bo'yalganlik darajasiga qarab turlicha bo'lishini, tovushlar turlicha jarangdorlikda, shakllar bir-biriga o'xshashligi jihatidan turli darajada bo'lishini anglab yetadi. Bola material predmetlarini juftlash va qo'yish bilan sifatlarni ayniyatini o'rnatish holatida bo'ladi. Masalan, bola geometrik shaklni kartonga qo'yish, ularni yacheykaga yasoylash, ikkita rangli jadvalni yonma-yon qo'yishni bajaradi. Shuningdek, ikkita kub, prizma yoki tayoqni qo'yadi. Keyinchalik esa individual darslar yoki o'z shaxsiy xulosalariga tayanib, bola sifatlarni tafovutini aniqlaydi: uzun-kalta, yorqin-xira, katta-kichik va boshqalar. Va nihoyat, qachonki rangli katakchalar, prizma, tayoq, silindr geometrik shakllar kabi predmetlar turlari bo'yicha ketma-ket joylashganda sifatlarni darajasini farqlashni boshlaydi. Biz har doim bolalarimizdan quyidagi iboralarni eshitamiz: «bu xuddi o'zi», «u bungao'xshaydi», «judayam o'xshash», «sal-pal o'xshash», «ko'proq», «semizroq», «kengroq», «buxiraroq», «bu rangliroq», «bu baland, bunisi pastroq» va shu kabi. Uning o'ziga ma'lum bo'lmagan, ammo ongda yashirin yotgan va unda zarurat tug'ilgandagina yuzaga chiquvchi aniq so'zlarni ishlatishni boshlaydi. Sifati bo'yicha farqlanuvchi narsa va buyumlar ma'lum tartib asosida guruhlarga taqsimlanadi. Bunday vaziyatda tevarak-olam bola uchun chalkash tuyulmaydi.

XULOSA

Har bitta predmet o'z o'rnida va darajasida bo'ladi. Bola o'zlashtirgan har bir bilim faqatgina «tasavvuriy» bo'lmay, balki «aniq» faktlar asosida egallanadi. Shu taxlitda bola ongida mustahkam va muntazam boyib boruvchi dastlabki tartib o'rnatiladi. Yosh bolaning kelajakda aqliy rivojlanishi asosan dastlabki ichki tartibning o'rnatilishiga bog'liq. Montessori bu o'sishni homila rivojlanishi bilan taqqoslaydi: homilaning o'sishi emas, balki uning tartib bilan rivojlanishi muhimdir. Bu tartibning ahamiyati shundaki, u to'g'ri rivojlanishni kafolatlaydi. Hamda yashash imkoniyati hisoblanadi. Homila butunlay ulg'aygan, lekin ichki organlari nomutanosib bo'lsa, u hayotga layoqatsiz bo'ladi.

REFERENCES

1. «Bolalar bog'chalari uchun dasturlar» T.:1992y
2. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori . O'zbekiston ovozi 28.01.2010 y
3. «Bolalar bog'chasida tarbiyachi programmasiga oid metodik ko'rsatmalar»T.: 1967y
4. Godina G.N. «Maktabgacha kichik yoshdagi bolarga ta'lim tarbiya berish T.: 1989y

5. Daminova M., Adambyekova T. «O`yin mashg`ulotlari» T.: «O`qituvchi» 1993y 6. Logipova V.I. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» T.: «O`qituvchi» 1992y
7. Yusupova G. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi». T «O`qituvchi» 1993
8. Fausyek Yu.U. Motessori bolalar bog`chasi. T.: «Yangi asr avlodi» 2007y 9. Yusuf xos Xojib. «Qutadg`u bilig» T.: «Yulduzcha» 1989y

HAR BIR FUQAROGA DAVLAT HISOBIDAN ANIQ KASB-HUNARGA O'QITISH IMKONIYATINI YARATISH

Ashurova Gulbonu G'olibjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotation. This article analyzes the current system of public accounting and the possibilities of vocational training for citizens. The article shows how the Society of the state develops simpler and more citizens and increases its professional interests. It highlights the importance of vocational training for each citizen and how the state develops its applications for this transition. The article provides advice to citizens relating to recommendations on foreign and domestic programs for development and reform, educational systems, and legal challenges or financial provisions.

Keywords; public accounting, vocational, reform, foreign and domestic programs, creativity, innovation, development.

Аннотация. В данной статье анализируется действующая система государственного учета и возможности профессионального обучения граждан. В статье показано, как сделать общество государства проще и больше граждан и повысить его профессиональный интерес. В нем подчеркивается важность профессионального обучения для каждого гражданина и то, как государство разрабатывает руководящие принципы для перехода к нему. В статье даются советы гражданам, связанные с иностранными и отечественными программами развития и реформ, системами образования, а также рекомендации по юридическим вопросам или финансовым вопросам.

Ключевые слова; государственный учет, профессия, реформы, зарубежные и отечественные программы, творчество, инновации, развитие;

Annotasiya. Mazkur maqola davlat hisobining amaldagi tizimini va fuqarolarga kasb-hunar o'rganish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Maqola, davlatning jamiyati sodda va ko'proq fuqarolarni qanday rivojlantirish va uning kasb-hunarga oid qiziqishlarini oshirishni ko'rsatadi. Unda har bir fuqaro uchun kasb-hunarga o'qitishning ahamiyati va bunga o'tish uchun davlatning qanday qo'llanmalarini rivojlanishini ta'kidlaydi. Maqola, fuqarolarga rivojlanish va islohotlar uchun xorijiy va mahalliy dasturlar, ta'lim tizimlari, va huquqiy muammolar yoki moliyaviy ta'minotlar bo'yicha tavsiyalar bilan aloqador maslahatlar beradi.

Kalit so'zlar; Davlat hisobi, kasb-hunar, islohotlar, xorijiy va mahalliy dasturlar, bunyodkorlik, innovatsiya, rivojlanish;

Kirish qism (Introduction).

Ma'lumki, dunyodagi har bir davlat yuksak taraqqiyotga erishish, jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirish, fuqarolari uchun munosib turmush shart-sharoitlarini yaratib berishni xohlaydi. Buning uchun keng miqyosli islohot va bunyodkorlik ishlarini amalga oshiriladi.

Bizning mamlakatimizda ham ushbu maqsad ustuvor mavqe kasb etib, davlatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot shunga qaratilgan. Bugun oldimizga katta maqsadlar qo'yib, shunga tomon harakatlanayotgan ekanmiz, bunda jamiyatda mavjud bo'lgan barcha sohaga e'tibor qaratishimiz lozim.

Mamlakat taraqqiyotida muhim rol o'ynovchi sohalardan biri bu ijtimoiy soha va u bilan bog'liq ijtimoiy siyosatdir. Ijtimoiy soha ijtimoiy hayotning barcha muhim qismlarini o'z ichiga olgani bois davlat siyosatida unga katta e'tibor qaratiladi.

Muhtaram yurtboshimizning “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarlarining “Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar” nomli qismida quyidagi fikr keltirilgan: “Yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir”. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun bugun qamrovi keng yangiliklar qilinmoqda.

Ijtimoiy siyosatning tor ma'nodagi ta'rifi davlatning ma'lum sababga ko'ra ijtimoiy jihatdan nochor bo'lgan va o'zining moddiy holatini o'z kuchlari orqali yaxshilay olmaydigan aholi guruhlari yoki qatlamlarini (pensioner, yetim bolalar, talabalar, mehnat nogironlari hamda kam ish haqi oluvchi ishlovchilar kategoriyalari)ni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat. Ijtimoiy siyosatning keng ma'nodagi ta'rifi jamiyatning barcha a'zolarining ijtimoiy rivojlanishi uchun normal yashash va qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari yig'indisidir.

Adolatli ijtimoiy siyosat aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan har bir islohotga adolat nuqtayi nazaridan yondashish, jamiyat qatlamlarining hech qaysisini e'tibordan chetda qoldirmaslik, ularga bir xilda va teng imkoniyat hamda sharoitlarni yaratib berish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish va boshqalardan iboratdir.

Asosiy qism (Main part).

Hozirgi zamon, talabalar yangi bilim va ko'nikmalar o'rganishga muhtoj. Bu esa davlatning boshqaruv tizimini, iqtisodiyotni va jamoatni mustaqil rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Bu yo'l oldiga kelayotgan eng muhim vazifalardan biri ham aniq kasb-hunarga o'qitishdir.

Davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish, insonlarga o'zlarining istiqbollari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Bu, har bir fuqaroga o'zining mahalliy bozorda ehtiyoj duyilgan kasb-hunarlarni o'rganish,

rivojlantirish va amaliy ish bilan bog'liqlikni ta'minlashga imkon beradi. Shuningdek, bu, davlatni mustaqil iqtisodiyotga olib kelish va o'z faoliyatini integratsiyalashga yordam beradi.

Kasb-hunarga o'qitish muhimdir, chunki bu, fuqarolarga sodiqlik, uning malakasini oshirish va turli sohalar ustida yuksak sifatli ishlar qilishga tayyorgarlikni beradi. Bu esa yangi innovatsiyalar, texnologiyalar va iqtisodiy jarayonlarga ko'rsatilayotgan raqobatda qat'iyligini oshiradi.

Jamoatning har bir a'zosi, boshqa bilimlar va sohalarda o'zlashtirilgan mahoratga ega bo'lishi, ularning o'zining shaxsiy va professional potentsialini o'rganish, rivojlantirish va amaliy amaldagi muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, kasb-hunarga o'qitishning ildizlarining yaratilishi, talabalarning o'zlarining ixtiyoriy kasb-hunarlarini tanlashda va ularni rivojlantirishda ozroq muhlat va imkoniyatni beradi. Bu esa fuqarolar o'rtasida ta'lim tizimini raqobatbardosh va istiqbollari uchun o'qitish usullari bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

Yaqin kelajakda, kasb-hunarga o'qitish, davlatlar va jamoatlar uchun muhim vaqtni ta'minlaydigan holatda turib, ularning o'zlarini o'zlashtirgan va rivojlantirgan fuqarolarini qo'llab-quvvatlash va hayot standartlarini oshirish uchun zarur bo'lgan bir qat'iy shart bo'ladi. Bu esa mustaqil va qisqa muddatli o'zlashtirilgan mahoratlarni rivojlantirish, iqtisodiyotni kuchaytirish va jamoatni barcha sohalarda yanada rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Yurtboshimiz tomonidan "O'zLiDeP"ning qurultoyida ushbu nutqlarni so'zlagan:

"Kasbiy ta'lim bilan tizimli shug'ullanish masalalar, to'liq Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga o'tkaziladi.

Kelgusi besh yilda norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaro bandligini legallashtirishga yordam beriladi. Shu orqali ularning ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanishiga imkoniyat yaratiladi.

Shuningdek, hududlarda servis sohalari ko'lamini kengaytirish orqali xizmat ko'rsatish hajmi 3 barobarga oshiriladi va buning evaziga 3,5 millionta yangi ish o'rni yaratiladi.

Ayollar o'rtasidagi ishsizlik darajasi kelgusi besh yilda 2 barobarga kamaytiriladi. Shuningdek, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlar kasb-hunarga o'qitiladi va ularning xarajatlari davlat tomonidan qoplab beriladi.

Kelgusi uch yilda uy-joyga muhtoj 10 mingdan ziyod xotin-qizlarga imtiyozli shartlar asosida uy-joylar ajratiladi".

Alabatta bunday imkoniyatlarning barchasi fuqarolarga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qitish, hamda o'zlari tanlagan kasblarda ishlay olish imkoniyatlarini yaratadi.

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions).

Umuman olganda, fuqarolarga davlat hisobidagi aniq kasb-hunarga o'qitishning natijalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

❖ Ishlab chiqarishda rivojlanish: Fuqarolar hisobidagi aniq kasb-hunarga o'qitish, insonlarning iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini oshiradi. Bu, ularning kasb-hunari sohasida rivojlanishiga imkon beradi va mamlakatning umumiy ishlab chiqarish darajasini oshiradi.

❖ Ishlab chiqarish va innovatsiyalar uchun muhim ko'nikmalar: Davlat hisobidagi aniq kasb-hunarga o'qitish, fuqarolar uchun soha-tayyorlash va innovatsiyalarni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bu, yangiliklarni kiritish, texnologik ravishda ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi sohalarda rivojlanishga olib keladi.

❖ Kasb-hunarda sifatli kadrlarni tayyorlash: Aniq kasb-hunarga o'qitish tizimi, sifatli kadrlarni tayyorlash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanadi. Bu, ishlab chiqarish sektorining professional kadrlar ehtiyojiga javob beradi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini oshiradi.

❖ Ishsizlik darajasi pastlash va iqtisodiy rivojlanish: Davlat hisobidagi aniq kasb-hunarga o'qitish, ishsizlik darajasini pastga tushiradi. Ko'plab fuqarolar yangi kasb-hunarlarini o'rganib, yangi sohalarda ish topishadi va shuningdek, iqtisodiy faoliyatning o'sishiga yordam beradi.

❖ Shaxsiy rivojlanish: Kasb-hunar o'rganish, insonlarning shaxsiy rivojlanishiga ham qo'llanadi. Bu, ularning o'zlarini rivojlantirish, yangi bilim va ko'nikmalar bilan tanishish, ijtimoiy faolliklarga qo'shilish va o'z mutaxassisliklarini rivojlantirishga olib keladi.

Muhokamalarda, fuqarolarga davlat hisobidagi aniq kasb-hunarga o'qitishning keyinchalik natijalari, o'quv jarayonining sifatini oshirish, ishlab chiqarishni hamda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, va fuqarolarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bu tizim insonlarning ta'lim va ish topishda qo'llaniladigan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, ko'plab sohalarda innovatsiyalarni olib keladi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini mustahkamlab turadi.

Xulosa (Conclusion).

Xulosa qilib aytish mumkinki, kasb-hunar o'qitish imkoniyatlarini yaratish masalasida, birinchi navbatda, davlatning ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirish lozim. Bu, milliy ta'lim standartlarini o'z ichiga olgan, kasb-hunar maktablarining va ko'rgazmalarining rivojlantirilishi va kengaytirilishi, shuningdek, ta'lim dasturlarining zamonaviy ravishda yangilashni talab etadi.

Boshqa holatlarda, fuqarolarga kasb-hunar o'qitish imkoniyatlari berish uchun dastlabki to'g'ri qadamni olib borish kerak. Bu, o'quvchilarni ma'lum bir sohaga oid

kurslar va mutaxassisliklarga yo'naltirish orqali o'zlashtirish mumkin. Masalan, texnologiya sohasida mahoratni oshirish uchun bo'lgan kurslar, kasb-hunar maktablarida ham o'qitilishi mumkin.

Davlatning yordamida tashkil etilgan dasturlar orqali, fuqarolar kasb-hunar o'rganish va rivojlantirishda ishtirok etishlari va yangi kasb-hunarlarini rivojlantirishlari mumkin. Buning natijasida, ularga bo'sh ish o'rinlari bo'ladi va mamlakatning iqtisodiyoti kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Vaxabov A.V., Zaxidova Sh.Sh., Xajibakiyev Sh.X., Raxmanov Sh.I., Odinayev D.Sh., Fayzullayev J.N., Baxtiyrov B.B., Abdulkakimov S.N.. Ijtimoiy siyosat. O'quv qo'llanma. - Toshkent. "Mumtoz so'z". 2019.
2. Abduraxmanova G.Q., Abduramanov X.X. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti. – Toshkent, 2018.
3. To'ychiyeva S., Norbekov A. Ijtimoiy siyosat. – Toshkent, 2010. 5. Shayusupova N.T., Arabov N.U., Nasimov D.A. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. - Toshkent. "Iqtisodiyot". 2014.
4. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. www.lex.uz.
5. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 11.09.2023. www.lex.uz.

ADOLATLI IJTIMOY SIYOSAT YURITISH, INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

Ashurova Gulbonu Golibjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Adolatli ijtimoiy siyosat inson kapitalini rivojlantirishning kritik zaxiralari ichiga kiradi. Bu, insonlarning ma'naviy, intellektual va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan siyosat tushunchasini anglatadi. Ijtimoiy adolat, barcha insonlarning tenglik va imtiyozlari bilan nizomlanganlikni ta'minlash, har bir kishining potensialini rivojlantirish va uni samarali foydalanishga imkon berish usullari asosida amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: Kapital, strategiya, taraqqiyot, kafolatlarni ta'minlash, ijtimoiy himoya, ma'naviy boshqaruv;

So'nggi yillarda yurtimizda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirildi. Buning uchun aholining yordamga muhtoj, zaif qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, fuqarolarimizni ishsizlikdan himoya qilish, bandligini ta'minlash, hududlarimizda kambag'allikni qisqartirish hamda ayrim sabablarga ko'ra vaqtincha ishsiz bo'lganlarni kasbga tayyorlash borasida ijtimoiy yordam va xizmatlar sifatini yaxshilash sohasida juda ko'p ishlar qilinmoqda.

Yaqinda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya ham xalqimiz tomonidan ijtimoiy masalalarga oid qator fikr-mulohaza va takliflar bildirilishi natijasida ijtimoiy davlat tamoyiliga oid tegishli normalar bilan boyitildi. U sifatli ta'lim va tibbiy xizmat, ijtimoiy himoyalangan yoki ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash, qulay mehnat sharoitlarida ishlash, adolatli haq olish, ishsizlikdan himoyalangan, ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarni uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan qoidalar bilan yanada takomillashtirildi.

Yangi Bosh qonunda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq normalar 3 barobar ko'paydi. Jumladan, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi. Bu degani, 2 million 200 ming ehtiyojmand oila davlatdan kafolatli moddiy yordam oladi. Bu jami oilalarning 25 foiziga to'g'ri keladi, ularga har yili 11 trillion so'm ajratiladi. O'tgan yili 50 ming oila uchun yangi kvartira olishga sharoit yaratib berildi. Bu yil 90 ming oilani uy-joyli qilish marrasi olingan. Yaqin 2-3 yilda bu raqamni 200 mingga yetkazish ustida ishlanmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani qayd etildi. “Ijtimoiy davlat” g‘oyasi mazmun-mohiyati Konstitutsiyaga kiritilayotgan qator boshqa normalarda ham o‘z ifodasini topgan.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyga ega bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

Shuningdek, yurtimizni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan ko‘pgina dasturlarda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish bo‘yicha rejalar va vazifalar kiritilgan. Masalan, 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan. Mazkur yo‘nalishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

– Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish;

– Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish;

– Maktabgacha ta’lim tizimida budget mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash;

– Malakali o‘qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish;

– Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish;

– Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish;

– 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash;

– Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

– Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag‘laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug‘urtalash amaliyotini joriy qilish;

Yuqoridagi maqsadlarda ham ta’lim, ham sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqalarga asosiy e’tibor qaratilgan. Chunki mazkur sohalar ijtimoiy hayotning eng muhim elementlari hisoblanadi. O‘z-o‘zidan ta’lim har bir davlat taraqqiyoti va kelajagining poydevoridir. Rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, ta’lim sohasiga katta ahamiyat berilganiga guvoh bo‘lamiz. Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlandiya kabi dunyoning yetakchi va rivojlangan mamlakatlarining shu darajada rivojlanishida ta’lim tizimini katta ahamiyat kasb etgan.

✚ Inson huquqlari va barqarorligi: Adolatli ijtimoiy siyosat, insonlarning huquqlarini himoya qilish va ularni barqaror qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu, adolatni ta'minlash va barcha insonlarning tenglik va izzatini qadrlash asosiy bo'lgan shartdir.

✚ Ma'rifat va ta'lim tizimini rivojlantirish: Inson kapitalini rivojlantirishning asosiy qatori ma'rifat va ta'lim tizimini kuchaytirishdir. Adolatli ijtimoiy siyosat, barcha insonlarga mos ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash, ma'rifatni oshirish va istiqbollarni kengaytirish uchun zarurdir.

✚ Sog'liqni saqlash va salomatlik: Inson kapitalini rivojlantirishning boshqa muhim ko'rinishlari sog'liqni saqlash va salomatlikni ta'minlashdir. Adolatli ijtimoiy siyosat, sog'liqni saqlash va tibbiyot xizmatlariga qat'iy e'tibor qaratishni talab qiladi.

✚ Iqtisodiy rivojlanish va ish joylarining yaratilishi: Adolatli ijtimoiy siyosat, ish joylarining yaratilishi va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun kerakli kadrlarni tayyorlash va ularga imkoniyat berishni o'z ichiga oladi.

✚ Qonun tizimining barqarorligi: Adolatli ijtimoiy siyosat, qonun tizimining barqarorligini ta'minlash orqali insonlarning huquq va maslahatlari bo'yicha muhofazani ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlatimizda amalga oshirilayotgan adolatli ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilar: har bir shaxsning mehnat qilishi, bilim olishi huquqlarini amalga oshirishni iqtisodiy va huquqiy jihatdan kafolatlash; aholining barcha qatlamlarini, birinchi navbatda, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining ijtimoiy himoya mexanizmini ishlab chiqish; ishsizlikning oldini olish; ijtimoiy sug'urta tizimini yaratish; aholi turmush darajasining keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik; aholi farovonligini ta'minlashning chora-tadbirlarini yaratish va boshqalar. Bu vazifalarning amalga oshirilishi kelgusi taraqqiyotning yuksak rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vaxabov A.V., Zaxidova Sh.Sh., Xajibakiyev Sh.X., Raxmanov Sh.I., Odinayev D.Sh., Fayzullayev J.N., Baxtiyorov B.B., Abdulkakimov S.N.. Ijtimoiy siyosat. O'quv qo'llanma. - Toshkent. "Mumtoz so'z". 2019.
2. Abduraxmanova G.Q., Abduramanov X.X. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti. – Toshkent, 2018.
3. To'ychiyeva S., Norbekov A. Ijtimoiy siyosat. – Toshkent, 2010.
4. Shayusupova N.T., Arabov N.U., Nasimov D.A. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. - Toshkent. "Iqtisodiyot". 2014.
5. "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun. O 'RQ-901-son 01.02.2024. www.lex.uz.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYADAN FOYDALANIB ONA TILINI O‘QITISH

Zoxida Matyakubova Sharifboyevna

Xorazm viloyati Hazorasp tumani 7-sonli maktab

Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

+998 99 500 67 27

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda, bunday bo‘lishiga sabablardan biri shu kungacha ta'limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash esa ularni mustaqil fikrlashga kerakli masalalarni izlab topishga, tahlil va xulosa qilishga o‘rgatadi.

Kalit so‘zlar: texnologiya, multimedia, pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari, chet tili, IELTS, tendensiya.

Ta'lim sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim - tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida o‘quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalalaridan foydalanishlari uchun, eng avvalo bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish, ta'lim tizimini texnik jihatdan ta'minlash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to'la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin. So'nggi yillarda o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasi tobora ko'payib bormoqda. Bu nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakllari va usullarini, o'rganishga yangicha yondoshishdir. Chet tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'z oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimiz - bu chet tilida talabalarni o'qitish sifatini oshirish, ularning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, amaliy mashg'ulotlarni o'rganish uchun texnologiyadan qanday samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatish. Biz bugungi kunda Dunyoda kompyuterlar hukmronlik qiladigan davdamiz. Xuddi texnologiya ishbilarmonlik aloqalarida, o'yin-kulgida, musiqada, filmlarda va kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalarida katta ahamiyatga ega bo'lgani kabi, u ham ta'limda bir xil darajada muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning 90% i maktabda, ishda yoki uyda qandaydir turdagi kompyuter yoki mobil qurilmalardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Shunday qilib, sinflar va o'qitish uslublari evolyutsiyasini texnologiya yo'nalishida tortishayotganini ko'rish ajablanarli emas. So'nggi yillarda yangi, texnologiya bilan birlashtirilgan sinf xonalari til o'rganishda ommalashmoqda. Aralashtirilgan ta'lim, virtual sinflar va ta'limni boshqarish tizimlari - bu eng yaxshi pedagog mutaxassislar tomonidan ma'qullanadigan ushbu yangi o'qitish metodikasi davrining namunalari. Ushbu usullar o'quvchilarning faolligini kuchaytirish, o'qituvchining rolini engillashtirish va barcha ishtirokchilar uchun tizimli, keng qamrovli o'quv tajribasini ta'minlash uchun tilni o'rganish texnologiyasidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ona tili o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyektivat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi. Tilning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so'rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi. Shunday usullardan biri kakografiyadir. Kakografiya so'zi lotincha kakos – yomon, xunuk, yoqimsiz va graphos – yozmoq so'laridan olingan bo'lib, muayyan maqsadni ko'zlab xatoliklarga yo'l qo'yilgan matnni tuzattirish orqali o'quvchilarga imloni o'rgatish usuli sanaladi. Bu usulning pedagogik va didaktik jihatlari hali ochib berilmagan. Rus tilida какофонический, какофония degan so'zlar mavjud bo'lib, ularga lug'atlarda quloqqa yoqmaydigan, yoqimsiz, nosoz, g'aliz; uyg'unlashmagan, yoqimsiz tovushlar yig'indisi degan izohlar beriladiki, bu so'z semantikasiga salbiy baho yuklaydi. Shunga ko'ra, kakografiya usulida yozuv bilan bog'liq g'alizlik, yoqimsizlik yashirinib yotganga o'xshaydi, ammo orfografik nuqtayi nazardan qaralganda u bilan bog'liq didaktik hamda pedagogik jihatlarni ochib berish masalaga oydinlik kiritishi mumkin. Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo'qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nafaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi. Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o'quvchilarga unli va undosh tovushlar bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar berilgach, “Mustahkamlash darslari” yoki “Takrorlash darslari”da turli

topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytilishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi. Tajribadan ma'lumki, o'quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o'zlashtirmaydilar. So'larni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, o'quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasining qotib qolishiga, so'zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'quvchilarning og'zaki nutqida baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas'ul, daryo kabi so'zlarni boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma'sul, dayra tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi bo'yicha ona tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida “O'zbek tilining imlo qoidalarini”dagi “Ayrim unli va undoshlar imlosi” yuzasidan tegishli nazariy ma'lumotlar mavzular o'tilgach, quyidagicha topshiriq beriladi: So'zlarni o'qing, xato yozilgan o'rinlarni topib, o'zbek tilining imlo qoidalariga mos ravishda ularni to'g'rilang va daftaringizga ko'chirib yozing. Bugalter, hayol, xayo, xolol, momila, xuqiq, rektir, kanferensiya, kampyuter, maylis va hokazo. To'g'ri yozilishi: buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, rektor, konferensiya, kompyuter, majlis. Kakografik yo'nalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi;
- O'quvchilar ona tilidan olingan bilim va malakalarni xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;
- Materiallarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;
- Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

Ayniqsa, og'zaki nutqda h – x, b – p, d – t, z – s kabi birining o'rniga ikkinchisi ko'p qo'llaniladigan undosh tovushlarning imlosini o'rgatishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Bunda xato yozilgan so'zlarni o'quvchilarga slaydlar orqali ko'rsatish, sinf taxtasiga ataylab xato yozish, so'zlari xato yozilgan tarqatma materiallarni qo'llash kabi vositalardan foydalanish unumli. Bundan tashqari muvaffaqiyatli o'qituvchilarni tayyorlashda ham texnologiyalar ko'proq foyda keltiradi. Aslida, muvaffaqiyatli o'qituvchilar - bular shaxslararo va shaxslararo munosabatlarning yuqori darajalariga ega va ular bolalar bilan tanishish uchun real imkoniyatlarga ega, qaerda bo'lishidan qat'i nazar va ularning so'zlarini chin dildan eshitish. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli o'qituvchilarga ega bo'lishi kerak, o'qitiladigan materialni va uning kamtarligini, sevimli shaxsiyatini va ularning o'zaro munosabatini chuqur anglash va ularning o'quvchilari bilan aloqa qilish va ularga bo'lgan hurmat. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli ingliz tili o'qituvchilari mavjud

texnologiyalardan maksimal darajada foydalanishlari kerak, o'quv xonalari va shuningdek, o'z o'quvchilari uchun Internetdan yuklab olingan qiziqarli materiallardan foydalanadilar.

REFERENCES:

1. Saydaliyev S. Chet tili o'rgatish metodikasidan maruza matnlari - Namangan-2002 www.scientificprogress.uz «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 6 805
2. Yo'ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiyalar yo'nalishlari, muammolari. Xalq ta'limi 1999-yil
3. Hoshimov O'.H; Yoquvov I.Y. Ingliz tili o'qitish metodikasi- Toshkent - 2003y.
4. Chet tillarini o'qitish zamonaviy texnologiyasi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari - Toshkent 2007-yil
5. Ziyonet.uz
6. Pedagog.uz
7. Literaryagency.uz

NODAVLAT TIJORAT TASHKILOTLARINING TA'LIM SOHASIDAGI O'RNI

Qodirova Mamlakat Muminovna

Qarshi davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrası

Tarix fanlari nomzodi dotsent

Annotatsiya

Nodavlat ta'lim tashkilotlari bugungi kun ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Maqolada nodavlat ta'lim muassasalarining maqsad va vazifalari ularda ta'lim berishning yangi tizimlari va olinayotgan natijalar yoritilgan. Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish yuzasidan bir qator yangiliklar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: *Nodavlat ta'lim tashkiloti, qonun, qaror, tizim, metod, sifatli ta'lim, dunyo ta'lim tizimi, boshqaruv funksiyasi, natijadorlik.*

Abstract

Non-governmental educational organizations have become an integral part of today's educational system. The article describes the goals and tasks of non-state educational institutions, new systems of education and the results obtained in them. A number of innovations have been proposed to improve the efficiency of the activities of non-governmental educational organizations.

Keywords: *Non-governmental educational organizations, system, method, quality education, world education system, management function, effectiveness.*

KIRISH

Bugungi kunga kelib yanada rivojlanib borayotgan yangi O'zbekiston taraqqiyotida ta'lim tizimining o'rnini beqiyos. Bu sohada yoshlarga eng zamonaviy bilimlarni berish, ularning intellektual salohiyatini oshirish va albatta dunyo miqyosida munosim o'rin egallahlarida bir qator islohatlarni amalga oshirish zarurati tug'ilgan bir paytda, davlatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan bir qator qaror va farmonlarga o'zgartirishlar kiritildi, yangilari imzolandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Xususan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi hamda 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812-sonli "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'grisida"gi farmonlar, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim

tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ma'lumotli mutahassislar tayyorlash sifatini oshirish iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtrokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatta amalga oshirikayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtrokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, qaror 2020 yil 7 avgustdagi 466-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ozbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ch, o'rta va o'rta mahsus, professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normative-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi va 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan 637-sonli O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, 2017-yil 15-sentabr, PQ-3276 sonli Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori shular jumlasidandir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasidagi barcha davlat va nodavlat ta'lim muassasalri “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi” hamda “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” tomonidan yuqorida keltirilgan me'yoriy hujjatlar asosida boshqariladi. Materiallar va usullar. Hozirgi iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichida dunyoda shu o'rinda O'zbekistonda ham nodavlat ta'lim tashkilotlariga bo'lgan talab keskin oshib bormoqda. Bu yo'nalish bo'yicha xorijiy davlatlarda ham, yurtimizda ham qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarining bugungi kundagi roli, yutuq va muammolari, boshlang'ch ta'limdagi o'rni kabi mavzular xorijiy olimlar Fawziya Reza, Shanti Jagannathanilarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Mamlakatimiz olimlaridan M.E.Axtamova, S.Sh.Urazovlarning ilmiy izlanishlarida ham O'zbekistonda talim xizmatlari samaradorligini oshirishda rivojlangan davlatlar tajribalarini qo'llashning nodavlat usullari masalalari yoritilgan. Undan tashqari bu tizimni rivojlantirish usullari masalalarni qator yosh izlanuvchilar o'z maqolalarida ham yoritishga harakat qilganlar.

Masalan Sh.Jagannat o'z ilmiy ishida Hindiston davlati oldida 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarni sifatli ta'lim bilan ta'minlashdek juda qiyin va katta hajmdagi vazifa turganligini ta'kidlaydi. Bolalarning 95% boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olingan bo'lsada 35000 bola afsus maktab ta'limidan umuman yiroq.

Savodxonlikni ta'minlash vazifasi hukumat tomonidan zaruriy harakatlar talab qilish bilan birga, xususiy sektorlar hamda jamoalar hamkorlik qilishlariga hissa qo'shishlariga ham ehtiyoj borligini ko'satdi. Muvaffaqiyatli tajribalar va ta'limga yangi yondoshuvlar aynan nodavlat tashkilotlar tomonidan paydo bo'la boshladi Bu tadqiqot shuni korsatdiki nodavlat ta'lim xalq ta'limi tizimini to'ldirishi va uning samaradorligini oshirishda kata rol o'ynashi mumkin. Nodavlat ta'limning

eksperimental yondoshuvi maktab ta’limidagi ko’plab kamchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etdi.

So’rovda qatnashgan Nodavlat ta’lim tashkilotlari boshlang’ich ta’limning parallel ta’minlovchilari bo’lishga intilmaydilar, balki hukumat tizimining samaradorligini oshirish uchun katalizator kuch sifatida harakat qilishni xohlashadi. Hatto qasho mamlakatlarda ham o’z faoliyatini olib borayotgan Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligiga kam ta’minlangan bolalar, chekka joylardagi jamoalar va ta’lim olishda ijtimoiy to’siqlarga duch kelayotgan boshqa bolalarning muvaffaqiyatli maktabda o’qishi eng yaxshi isbotdir.

So’ngi yillarda Respublikamizda ham ta’limning bu tarmog’iga bolgan qiziqish va talab ortib borayotgani yaqqol ko’zga tashlanmoqda. Aholi orasida bu ta’lim tashkiloti faoliyatiga taluqli aniq ma’lumot berish maqsadida quyidagilarni malum qilamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida” 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931- son qarori ijrosini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha nodavlat sektorning salmog’ini kengaytirish borasida tadbirkorlik subyektlariga qulay shartsharoitlar yaratish hamda nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi. Bu qarorning 2-bobida aynan ta’limning poydevori bo’lgan nodavlat umumta’lim tashkilotlarning maqsad va vazifalari aniq ko’rsatib o’tilgan.

Unga ko’ra: Nodavlat umumta’lim tashkilotining maqsadi ta’lim oluvchilarga umumiy o’rta ta’limning yuqori sifatini ta’minlaydigan qulay shart-sharoitlar yaratish, an’anaviy ta’lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta’lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta’lim xizmatlari ko’rsatish, ilg’or xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda o’qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida umumiy o’rta ta’lim sohasidagi samaradorlik va natijadorlikni oshirishdan iborat.

Nodavlat umumta’lim tashkilotining vazifalari quyidagilardan iborat: umumiy o’rta ta’limni har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko’zlagan holda amalga oshirish, ta’lim oluvchilarning jinsi, millati, dini, irqiy mansubligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, ularning har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar, o’z ustida mustaqil ishlashi va qo’shimcha bilim olishi uchun imkoniyatlar yaratish; ta’lim oluvchilarning muntazam bilim olishini ta’minlash, ularda bilim olish ehtiyojini kuchaytirish, bazaviy o’quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish; ta’lim oluvchilarga milliy an’analar va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim berish, milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uyg’unlashtirish asosida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni qaror toptirish, o’z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish; ta’lim oluvchilarning alohida ijobiy xususiyatlari va

qobiliyatlarini aniqlash, qo‘llabquvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta‘lim olishi, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishi va ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratib berish; ta‘lim oluvchilarda mehnat qilish va mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni kasbiy yo‘naltirishga va kasb tanlashiga ko‘maklashish; Yuqoridagi maqsad va vazifalardan shuni anglatadiki, nodavlat ta‘lim tashkilotlarining maqsadi ham jamiyat uchun ma‘naviyati yuksak, bilimli shaxsni tarbiyalash ekan.

XULOSA

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida ilm-fan, texnika va madaniyat taraqqiyotining asosiy va muhim bo‘lgan omili bu albatta ta‘limdir. Bu tizimning har bir sohasini chuqur o‘rganish va yanada rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanar ekan, bu tizimning rivoji uchun ta‘limning har qanday yo‘nalishni yuksaltirish, taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalari asosida yanada takomillashtirish, jahon ta‘lim standartlari talablariga javob bera oladigan eng zamonaviy metodikalar va qo‘llamalardan foydalanish, salohiyatli kadrlarni tayyorlash va ularni malakalarini chet davlatlarida oshirish, iqtidorli o‘quvchi yoshlarga turli sohalarda o‘zlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratib berish va ularni qo‘llab quvvatlash, rag‘atlantirish davlatimiz kelajagi yuksalishining asosiy ustuvor tayanchi hisoblanadi deb o‘ylayman. Shulaani inobatga olgan holda nodavlat ta‘lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishda yangi mehanizmlar yaratish ustida tadqiqotlar olib borish zarur deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахтамова М.Э, Уразов С.Ш. НЕГОСУДАРСТВЕННЫЕ СПОСОБЫ ПРИМЕНЕНИЯ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ. // Архивариус.-2021.Т.7.-№4(58)- С.37-40.
2. Fawziya Reza –THE ROLE OF NGOS IN PROMOTING EDUCATIONAL:SUCCESSSES AND CHALLENGES./Internetal Journal of Educational, Learning and Development.Vol.10, № 1pp.24-43,2022
3. Shanti Jagannathan.THE ROLE OF NONOGOVERMENT ORGANIZATIONS IN PRIMARY EDUCATION.
4. lex.Uz

ИНТЕРАКТИВ ЭЛЕКТРОН ЎҚУВ КУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Суванкулов Бахтиёр Мамарасулович

Жиззах давлат педагогика университет доценти

Мақолада мультимедиа технологиялари асосида интерактив электрон ўқув курсларини яратиш ва қўллаш тамойиллари кўриб чиқилган. Информатика фани бўйича яратилган ИЭЎК мисол тариқасида берилган. Ундан ўқитувчиларни самарали фойдаланиш йўллари кўрсатилган ва самарадорлик даражаси юқори даражада эканлиги айтиб ўтилган.

Калит сўзлар: мультимедиа, интерфаол, электрон ўқув курси, технология, тамойиллар, информатика.

In this article it's shown to use problems of working technology in teaching progress and using technology of multimediu in computer and electron lessons. Multimedia informational technology and its influence to raise efficiency of education is also studied. This article deals with the Use of multimedia means informational technology in educative process. Now days there are many widely changes of education system by this program.

Keyword: multimedia, technology, interactive, electronic teaching, informatika.

Аввалги дарсда ўтилган мавзу бўйича 5-6 та саволдан иборат тест берилади. Жавоб учун 3 дақиқа вақт берилади. Сўнг тестлар орқасидаги тест калити ёрдамида жавобларни текшириб чиқишлари айтилади. Янги мавзунини синф тахтасига ёзиб, ҳар бир гуруҳга бошқотирмалар берилади. Масалан, «Миллий маънавиятга хос» мавзусида миллий маънавиятимизни акс эттирувчи бошқотирмалар бериш мумкин. Ўқувчилар бошқотирмадаги топшириқлар асосида сўзларни топиб каттакларни тўлдиради. Ҳар бир бошқотирманинг бош ҳарфларидан сўзлар келиб чиқади ҳамда бош ғоя нима эканлигини билиб олиш мумкин бўлади.

1	2	3	4
о	з	о	д
з	а	қ	у
о	р	и	н
д	а	л	ё

1. Тутқунликдаги инсон қандай яшашни истайди?
2. Бузғунчи ғоялар халққа нима етказди?
3. Доно сўзининг синонимини топинг.
4. Олам сўзининг синонимини топинг.

1	о	д	и	л				
2	б	у	н	ё	д	к	о	р
3	о	ғ	и	р				
4	д	и	н	и	й			

1. Адолат сўзининг синоними.
2. Қандай ғоя инсонни эзгуликка олиб боради?
3. Қатағон йиллари халқимиз қандай кунларни бошидан кечирди?
4. Ҳайит қандай байрам?

Охирида озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт, яъни миллий маънавиятимизга хос бўлган бирикма келиб чиқади.

Гуруҳларнинг тўғри танланиши ўқувчиларнинг дарс давомида сезиларли даражада фаол ҳаракат қилишга имкон беради. Ушбу усулнинг самараси шундаки, машғулотларда барча ўқувчилар қатнашади, улар ўз фикрларини эркин баён қилишади, муомала маданиятини ўрганишади.

Энг асосийси бу усул ўқувчилар учун қизиқарли кечади, чунки улар кенг фикрлайдилар, ижод қиладилар, ўз фикрларини билдирадилар.

Умумий ўрта таълим мактабларида замонавий таълим технологияларининг қўлланиши ўқувчининг ички имконияти, қобилиятини намоён қилади.

Бугунги она тили таълимида, хусусан, 5-6-синф дастур ва дарсликларида феъл, от, сифат, равиш ва олмошлар каби сўз туркумларини ўрганиш жараёнида уларни жуда кўп ички луғавий-маъновий гуруҳларга ажратиш ва ҳар бир гуруҳ сўзлари устида ишлаш сингари синф ва уй ишлари топшириқларини бажариш кўзда тутилган. Дастур ҳам, дарслик ҳам бундай маъновий гуруҳларни ўрганиш жараёнида қандай сўзлардан фойдаланиш лозимлигини муайян равишда қатъий белгилаб бермайди ва ўқитувчига қандай сўз ва тушунчалар устида ишлаш учун катта эркинлик беради. Ўқитувчи мана шу эркинликдан маънавий тушунчаларни ўқувчилар онгига сингдиришда самарали фойдаланиш учун имкон беради. Бунинг учун ўқитувчи ҳар бир маъновий гуруҳни ўтишда шу гуруҳга алоқадор бўлган ва ўқувчининг ватани, униб-ўсган жой, яшаш шароити ва муҳити билан боғлиқ сўзлар устида ишлашни мақсад қилиб қўяди.

Ўқитувчи ҳар бир луғавий гуруҳ устида олиб бориладиган машқ ва топшириқларни бажаришда дарсликда берилган материаллардан ташқари ўзи ҳам ижодий равишда машқлар ва топшириқлар тизимини ишлаб чиқади. Масалан, ўқувчилар тегишли маъновий гуруҳларга доир сўзлар тўдасини аниқлаганларидан кейин улардаги маъновий муносабатларни аниқлашни ҳам буюради. Бунинг натижасида ўқувчилар луғавий-маъновий гуруҳлардаги маънодошлик, зид маънолилик, шаклдошлик, уядошлик, даражаланиш каби маъновий муносабатларни ҳам аниқлайди.

Кўринадики, тилимизда мавжуд сўзлар устида олиб бориладиган бу тарздаги машқлар ўқувчиларда она тили, она юрти, она халқига нисбатан ҳурмат, муҳаббат туйғуларини

ўстирадиган тенгсиз омилдир. Бу йўл ўқувчи- ёшлар онгида миллий онгни шакллантирувчи, ватанпарварлик туйғуларини ўстирувчи бошқа омиллардан беҳад самарадолиги билан алоҳида ажралиб туради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Н. Маҳмудов, А. Нурмонов ва бошқалар. Она тили. 5-синф. Тошкент, 2017, 178- бет.
2. Н. Маҳмудов, А. Нурмонов ва бошқалар. Она тили. 6-синф. Тошкент, 2017, 3- бет.
3. «Таълим тўғрисида» Ўз. Рес. Қонуни. «Баркамол авлод Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори» китобида, Тошкент, 1998, 20-29 бетлар.
4. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. «Баркамол авлод Ўзбекистон тараккиётининг пойдевори» китобида, Тошкент, 1998, 30-61 бетлар.

5. Botirova, S. (2020). The Role of Artistic Psychology in the Metaphorical Harmony of Man And the Reality of Life. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 9(4), 16-20.

6. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169. <https://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.47>

7. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., Botirova, S., & Shermatova, U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 243-247. <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.29>

ИНТЕРАКТИВ ЭЛЕКТРОН ЎҚУВ КУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Суванкулов Бахтиёр Мамарасулович

Жиззах давлат педагогика университет доценти

Мақолада мультимедиа технологиялари асосида интерактив электрон ўқув курсларини яратиш ва қўллаш тамойиллари кўриб чиқилган. Информатика фани бўйича яратилган ИЭЎК мисол тариқасида берилган. Ундан ўқитувчиларни самарали фойдаланиш йўллари кўрсатилган ва самарадорлик даражаси юқори даражада эканлиги айтиб ўтилган.

Калит сўзлар: мультимедиа, интерфаол, электрон ўқув курси, технология, тамойиллар, информатика.

In this article it's shown to use problems of working technology in teaching progress and using technology of multimediu in computer and electron lessons. Multimedia informational technology and its influence to raise efficiency of education is also studied. This article deals with the Use of multimedia means informational technology in educative process. Now days there are many widely changes of education system by this program.

Keyword: multimedia, technology, interactive, electronic teaching, informatika.

Компьютер технологияларини тезкор ривожланиши уларни ҳар кунги ҳаётга шу жумладан таълим соҳасига жорий этиш муҳим омиллардан ҳисобланмоқда. Замонавий ахборот технологиялар таълим жараёнини самарадорлиги ошириш учун янги имкониятлар очиб бермоқда/, шу маънода таълим парадигмаси ҳам ўзгармоқда. Фаол билим олиш масофали таълим дастурларига, мустақил таълим олишга катта рол берилмоқда. Таълим жорий парадигмасининг ўзгариши сабаби бўлиб, биринчи ўринда ахборот ва коммуникация технологияларни (АКТ) инсоннинг барча фаолияти соҳаларига кириб бориши ҳисобланади. Меҳнат бозорида муваффақиятга эришиш учун мутахассис АКТнинг турли имкониятлари эркин фойдалана олиши керак. Замонавий таълим муҳитини шакллантириш соҳасида қўплаб тадқиқотлар шуни кўрсатдики, таълимда кўзланган мақсадга эришишнинг энг самарали йўли АКТни ўқув жараёнида интенсив қўллашдир.

Таълим жараёнига фаол компьютер технологияларини жорий этиш масалаларида ўқув жараёнини ташкил қилиш учун фойдаланиладиган дастурий таъминот, замонавий электрон ўқув курслари (ИЭЎК) биринчи ўринни эгаллайди. Бу курслар ўқувчиларни мустақил иш самарадорлигини оширади ва ўқув муассасаларининг ахборот-таълим муҳитини фаоллаштиришга имконият беради. Охириги пайтда турли ўқув электрон нашриётларнинг яратилиш мавзуси

нафақат ишлаб чиқарувчиларни, педагог ва мактаб ўқувчиларини эътиборини тортади, балки давлат даражасида муҳокама қилинаётган ва талабга доир бўлиб қолмоқда. Замонавий мактабларни компьютерлаштириш миллий лойиҳа статусига эга бўлмоқда.

Замонавий ўқув дастурий таъминотни ишлаб чиқариш концептуал масалалари Тайлақов Н.И, Жўраев Р.Х, Алламберганова М, Цой М, Бегимқулов У ва бошқа тадқиқотчилар ишларида акс этган.

Кўпгина муаллифлар компьютер ўқув курслари асосида фойдаланувчи билан интерактив ўзаро таъсирли элементлар мультимедиали технологияси жойлашган деб бир фикрга келганлар. Мультимедиа-бу дарсликларни, ўқув материални баён қилиниши билимни назорат қилиш ва якуний баҳо чиқаришгача бўлган жараёнларнинг барчасини автоматизациялаштиришдир. Бунда ўрганилаётган ўқув материали ёрқин, қизиқтирувчи, ўйинга ёндашувли, графикли, анимацияли, интерактивли, товушли бўлиши мақсадга мувофиқдир.

Дастурларни тузишда мультимедиали технологияларни қўллаш масалалари кўплаб олимларнинг илмий ишларида кўриб чиқилган. Муаллифлар томонидан умумтаълим мактаблари, ўрта махсус касб-ҳунар таълими ва олий таълим муассасалари учун юқори сифатли, самарали мультимедиа маҳсулотларини оммавий ишлаб чиқариш муаммоси қаралган, лекин мультимедиали технологиялар асосида интерактив электрон ўқув курслар яратиш масалалари ханузгача ҳал этилмаган. Масаланинг ҳажми, янги пайдо бўлаётган талаблар сони ўзгармоқда (интеропараболик, адаптивлик, унификация ва бошқалар) ва дастурий таъминотнинг янги архитектура қарорлари, унинг лойиҳалаштириш принципларини қайта ишлаб чиқиши, яратилиши ва методик кузатувчанлигини талаб қилади.

Замонавий электрон ўқув курсларини ишлаб чиқиш муаммоси, уларнинг адаптацияси ва ўқув жараёнига жорий этилиши долзарб ва талабга доир ҳисобланади.

Дастлаб электрон ўқув курслари: «таълим эҳтиёжлари, лойиҳалаштириш, муаммо ва келажақдаги режалар» кўриб чиқилган. Унда таълим тизими электрон нашриёт ва ресурсларга эҳтиёж томонлари кўздан кечирилган, фойдаланилаётган терминология таҳлил қилинади, «интерфаол электрон ўқув курс (ИЭЎК)» тушунчаси кўрилади. Мультимедияли технология асосида интерфаол электрон ўқув курслар яратиш учун замонавий ёндашувлар кўриб чиқилди, шунингдек ўқув жараёнига ИЭЎКларни яратиш ва жорий этишда пайдо бўлган асосий муаммолар таҳлил қилинди. ИЭЎКга бўлган умумий эҳтиёж тадқиқотлар натижасида аниқланди ва тўртта асосий гуруҳга бўлинади:

1. Ўқувчиларда билимларнинг аниқ тизимини шакллантириш зарурлиги билан боғланган эҳтиёжлар. Айниқса макро ва микро элементлари ўрганишда,

бир қатор тушунчалар, назариялар, қонунларни ўрганиш зарурлиги вазиятларда сезилади. Бу қонунлар анъанавий ўқитишда тажрибали асосланишни талаб этмайди.

2. Ўқувчиларни репродуктив кўникмаларга эга бўлиш зарурлиги билан боғлиқ бўлган эҳтиёжлар. Электрон нашриёт ва ресурсларни жорий этиш ҳисоб-китобга, натижаларни текширишга ва ишлов беришга, ҳар бир фандан кўникмаларни самаралироқ ташкил этишга сарфланадиган вақтни анча қисқартириш имкониятини яратади.

3. Мактаб ўқувчиларида ижодий кўникмаларни жонлантириш зарурияти билан боғлиқ бўлган эҳтиёжлар, билим олиш жараёни мустақил изланиш орқали ташкил этиш.

4. Шахс сифатларини шакллантириш масалалари билан боғлиқ бўлган эҳтиёжлар. Электрон нашриёт ва ресурсларини қўллаш у ёки бу технологиядан фойдаланишнинг натижаларини таҳлил қилишга имкон беради, бошқаларга, жамиятга бўлган муносабатларни, жавобгарлик ҳиссини шакллантиришга йўл беради.

Ҳозирги пайтда ўқув электрон нашриётларга бағишланган илмий ишларда турли атама ва аббевиптуралар учрайди: «ЭСУН», «ЭИР», «Электрон дарслик», «Электрон мустақил ўқитиш» ва ҳ.к, шунинг учун ишда қўлланиладиган терминалогияни аниқлаш мақсадида, уларнинг асослари келтирилган. Электрон ўқув курси атамаси ўқув жараёнини интерсификация қилиш учун комплекс дастурий таъминот сифатида келтирилади. Ўқув жараёни маълумот олиш имкониятини ўзини текшириш, аттестация (тест топшириш) элементларни бирлаштиради ҳамда амалий вазифаларни (компьютер тажрибасини ўтказиш масалаларини ечиш, чизмаларни кўриш ва бошқалар) бажарилишини таъминлайди.

Таълим тизимининг эҳтиёжларидан келиб чиқиб, электрон ўқув курсларнинг қўйидаги категорияларини аниқлаш мумкин:

1. Таълим электрон ўқув курсларини анъанавий ўтказиш тизимида фойдаланиш учун Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими Олий ва ўрта махсус таълим вазирликларининг стандартлари ва дастурларига мувофиқ олиб борилади.

2. Факультет ишлари ва электрон курсларнинг ўтилиши учун мўлжалланган ИЭЎК.

3. Уйда тайёрланиш учун ИЭЎК.

Таълим ИЭЎКларни мумкин бўлган классификацияси талабларини баён кўринишида, фойдаланувчи билан ўзаро таъсирлик характери бўйича тарқатиш технологияси шакли бўйича кўриб чиқилади.

Таълим ИЭЎКга ҳозирги босқичда қуйидагилардан асосий (дидактик, методик, психологик, соғлиқни сақловчи, эргономик ва технологик) талаблар ажратиб кўрсатилади. ИЭЎКларни комплекс экспертизаси масалалари кўриб чиқилади. Олий ўқув юртларида ўқув дастурий таъминотини қўллашда пайдо бўладиган муаммолар тасвирланади.

Олий ўқув юртларининг материал-техник базасини етарли даражада шаклланганлиги,

Ўзбекистон oliy o'quv yurtlarini “Ziyonet” глобал интернет тармоғига етарли даражада уланганлиги электрон нашриёти ва ресурсларини қўллаш учун педагогик кадрларни тайёрлаш каби умумий муаммолар билан бир қаторда мактаблар учун электрон маҳсулотларнинг сони ва сифати бўйича аниқ масалалар кўриб чиқилади.

Ўзбекистонда oliy o'quv yurtlar дастурларининг 20% дан ортиқроғи рақамли ресурслар ва уларнинг қўллаш методикаси томонидан қўлланилади, педагогларнинг 4,7% ўз ўқувчилари билан ишда компьютер технологияларини қўллашади. Шунингдек, ИЭЎКларнинг архитектура ечимлари, ишлаб чиқаришда қўлланиладиган объектларни стандартизациялаш соф технологик муаммолари таҳлил қилинади. Педагогик муаммоларни ечишда имконга эга ёндашувлар кўрсатилади. Ахборот коммуникатив технологиялар томонидан кўрсатилаётган имкониятларнинг ўзгариши ҳамда кенгайиши, ИЭЎКнинг яратиш соҳасида доимий равишда содир бўлади. Шунинг учун муаллиф томонидан компьютер технологиясидаги перспектив йўналишларнинг таҳлили ва тасвири келтирилади. Бу компьютер технологиялар ЭЎ қўлланмалар ҳақидаги тасаввурни яқин келажакда ўзгартиришга қодир, бу соҳада бир қатор ўзбек олимларининг замонавий изланишлари янги авлод ўқув тизимлари қандай хусусиятга эга бўлиши ҳақида тасаввурга эга бўлишга ёрдам бериши мумкин:

Улар қуйидаги хусусиятларга эга:

- очиклик билан (модулли архитектура);
- ўқитувчининг дифференциялантириш ва индивидуаллаштиришга йўналтирилган;
- халқаро таълим стандартлар томонидан қўлланилиши;
- фойдаланувчи томонидан электрон дарсликлар, назорат ишлар, презентациялар ҳамда тўлиқ дарсларни динамик компоновка қилиш имконияти;
- алгоритмлаштирилган масалалар ва ўқув модулларнинг қўлланилиши;
- функционал диалог асосида тизимнинг имкониятларидан фаол фойдаланиш.

Ҳозирги пайтда электрон дарсликни яратиш масофали таълим тизими (МТТ) ғояси билан боғлиқ.

Тадқиқот якунида қуйидаги хулосани қилиш мумкин: таълим йўналишидаги ИЭЎК яратиш масалалари ҳозирги пайтда деярли чуқур ва тўлиқ ишлаб чиқилган. Аммо мамлакатимиз бозорида намоиш этилган ўқув дастурий таъминот сони ва технологик педагогик характерга эга бўлган бир қатор муаммолар ўрта мактабларда ўқув дастурий таъминотининг номуваффақиятли қўллаш фоизи ўртасидаги дисбаланс. аниқ намоён бўлган. Бу муаммоларни бирдан-бир ечими, муаллиф фикрича ИЭЎКни махсуслаштирилишидир. Уларни лойиҳалаштириш, фан дастурларига бевосита таяниш, таълим жараёнига ИЭЎКни жорий этишга бўлган тизимли ёндашувни реализация қилиш ҳисобланади. Қуйида ўрта мактабда ўқув жараёнида мўлжалланган интерактив электрон ўқув курсларини яратиш принциплари очиб берилади. Ишда муаллиф томонидан ўқув дастурий ва методик таълим таъминотини асосий принциплари таклиф қилинган. Ўқув жараёнига қаратилган ИЭЎК яратишнинг бутун жараёни, замонавий таълим ИЭЎКлар концепциясини ишлаб чиқишнинг уч томонлама масала сифатида қаралишига боғлиқ.

Шунингдек таълим муассасаси ўқув жараёнига унинг дастурий педагогик ва методик реализациясини кетма-кет жорий этиш масаласи сифатида ҳам қабул қилиниши керак.

Замонавий таълим ИЭЎКлар концепциясини ишлаб чиқиш таълимга компьютерни жорий этишнинг асоси бўлиб ўқувчининг мустақил ўқув иши секторини анчага кегайтиришига хизмат қилади. Мустақил иш фақатгина актив фаолият шаклида самарали бўлиши мумкин. Актив фаолият, ўқув шакллари интерактив ИЭЎКнинг қўлланилишини талаб этади. ИЭЎКларни оддий фан дарсларида, уларнинг махсус томонларини эътиборга олган ҳолда қўллаш керак. Юқорида айтиб ўтилган гаплардан келиб чиқиб, келажакда таълим ИЭЎКларини ишлаб чиқиш даврида қўйидаги принципларга амал қилиш зарур:

1. Зарур мақсадга мувофиқлилик принципи. Ишлаб чиқарилаётган ИЭЎКлар ўқув жараёни сифатини яхшилаши керак. Шунинг учун компьютеризация жараёнига фақатгина интерактив компьютер компонентлари, имкониятлари, талаб қилинган ва зарур бўлган қисми киритилиши керак. Аниқ ўқув курсида, компьютер технологияларини самарали қўллаш соҳасини аниқлашга максимал эътиборни қаратиш керак. Замонавий электрон

ўқув курсларининг кўплари, мавжуд бўлган анъанавий воситалар ўрнини босиши мумкин ва самарали ютуқ томонлари яққол кўзга ташланиши мумкин.

2. Модулли қўллаш принципи. Ўзбекистон мактабларининг синф-машғулот тизими хусусиятларини эътиборга олганда ҳар бир ўқувчини шахсий компьютер билан таъминлаш мактаб фан кабинетларида жуда мураккабдир. Бу эса таълим ИЭЎКларини модулли қўллашга олиб келади (маълум бир мавзу ёки фаолиятнинг маълум турини амалга ошириш бўйича: лаборатория, билимлар

назорати ва ҳ.к). ИЭЎКларни лойиҳалаштириш даражасида уларни модуллигини таъминлаш талаб қилинади, қўлланилаётган модулларни аниқлаб, синф-машғулоти тизими доирасида уларнинг бажарилиши имкониятини ҳисоблаган ҳолда. Аслида ўқитувчининг ўзи ИЭЎК таркибига қирадиган кутубхона объектдан ўқув модулларини компоновка қилиш имкониятига эга бўлиши керак.

3. Ўқув адекватлиги принципи. Мактаб ўқув жараёнида қўллаш учун таклиф қилинаётган ИЭЎКларни ишлаб чиқиши максимал даражада замонавий ўқув дастурлари ва ўқувчига қўйилган талаблар даражаси эътиборга олинishi керак. Афсуски, ўқув дастурий таъминотнинг етакчи ишлаб чиқарувчилари ҳам бу принципга риоя қилишмайди. Мактаб талабларига мос келмаган терминология, белгилашлар, таклиф қилинаётган вазифалар даражаси, таълим стандартларига назарий таркиби ҳам мос келмайди.

4. Ташкилий эргономиклик принципи. Ушбу принцип бўйича ўқитувчи машғулотининг техник таъминоти, таълим ИЭЎКларини қўллаган ҳолда ва иш борасида олинган натижалар таҳлиliga вақтнинг минимум даражасини сарфлаши керак. Ташкилий эргономикага қўйидагилар қиради: ўқувчига таклиф этилаётган экранларнинг таркиби ва ташкил этилиши, объектлар интерактив имкониятларининг баланслаштирилганлиги, педагогнинг машғулоти ташкил этишдаги маълумотлар базаси асосида, олинган натижаларни сақлаш.

Мактаб учун ишлаб чиқиляётган ИЭЎКлар бошқарувнинг маъмурий блокига эга бўлиши керак. У ИЭЎКни бир вақтда, барча жойларида, маълумотлар базасига киритиш имконини беради.

5. Лойиҳанинг дастурий реализацияси. Дастурий таъминотни лойиҳалаштиришда мавжуд методларнинг таҳлили ва унинг архитектураси қурилиши, замонавий дастурий воситалар бугуннинг ўзида ИЭЎКларнинг янги авлодининг яратишнинг имкониятли эканлигини кўрсатади. Бу ИЭЎКлар очиклик принципи, таркибий объект қўллаб-қувватланиши фойдаланувчи томонидан ўқув блоки, назорат ишлари, презентацияларни тўлиқ даражаларни ва объектларни тасвирлаш халқаро стандартларни қўллашни тақозо этади.

6. ИЭЎКни ўқув жараёнига жорий этиш. Электрон ўқув қўлланмани реал мактаб курсига жорий этиш босқичида кўпгина фан ўқитувчилар қийинчиликни сезишади. Кўпчилик томонидан умумий ечимни таклиф қилишларига қарамай, ўқитувчиларнинг кўпчилиги ўз дарсларида компьютер технологиялардан фойдаланишдан бош тортадилар. Кўпинча биринчи омадсиз тажрибадан сўнг, ИЭЎКни ўқув жараёнига самарали жорий этишга халақит бераётган сабаблар таҳлили бу муаммога комплекс ёндашув зарурлигини тушунишга олиб келади. Бундай ёндашув янги восита ва методларга фан ўқитувчиларининг мослашишини енгиллаштиради.

Фан бўйича ўқув фаолиятини олиб бориш учун ИЭЎКни имкониятларини намоёниш этиш, ўқув жараёнига киритиш учун таклиф қилинаётган ИЭЎКни ёки унинг таркибий қисмларини астойдил танлаб олишни кўзда тутди. Бу босқичда фан ўқитувчиларига ИЭЎКнинг энг самарали томонларини намоёниш этиш муҳимдир.

Ўқув жараёнида ИЭЎКни қўллаш мавзуси бўйича (шу жумладан интернет форумлар) семинарлар ташкил этиш лозим. Бундай семинарларда ўқитувчилар методик топилмалар, дидактик материаллар билан алмашиши мумкин, тажрибали педагог – ҳамкасблар томонидан ёрдам олишлари мумкин.

Oliy o'quv yurtlarida қўллашга йўналтирилган ИЭЎКни тузиш принципларини амалиётда реализация қилинганлиги мисоли сифатида муаллиф томонидан ИЭЎКларнинг мураккаб тузилмасининг ахборот манбаси, концепциясини яратиш бўйича иш кўриб чиқилган. Бундай тажриба 2010 йили “Янги авлод ўқув материалларини яратиш” танловда “Информатика фани бўйича ИЭЎК” мисоли сифатида кўрсатилди.

1. Зарур мақсадга мувофиқ бўлган принципни амалга ошириш.

“Информатика” фани ўқув дастури фан ўқитувчиларининг таклифи, “Информатика” курсига компьютер технологияларини жорий этиш соҳасидаги аналитик ишларни таҳлили асосида интерактив технологияларни самарали жорий этиш соҳаси – компьютер эксперименти, процесс ва ҳодисаларнинг интерактив моделларини намоёниш этилишидир.

Натижада ўқувчилар учун “Информатика” фани бўйича “Интерактив лаборатория ишлари” виртуал экспериментлар учун моделлар тўплами кўринишида лойиҳалаштирилди. Бу экспериментлар ўрта мактаб учун “Информатика” фанининг барча бўлимларини қамраб олади. Лаборатория ишлар маълумот блоки, тест вазифалари, натижаларни таҳлил қилиш, уларни тайёрлаш ва ўтказиш, ўқувчилар томонидан лаборатория ишларини бажарилишини эътиборга олиш кўринишида ҳам тасвирланади.

2. Модулли фойдаланиш принципни амалга ошириш.

Келажакдаги таълим ИЭЎК таркиби ва хусусиятларни аниқлашда модулли фойдаланиш принципи қўлланилди.

Курснинг асосий элементи модул-лаборатория иши ҳисобланади. Ҳар бир лаборатория иши ўзгарувчан параметрлар билан интерактив модели ўз ичига олади. Бу модел ўқув вазифалар ва маълумотларга эгадир. Бундай синф объектлари учун янги бўлиб тадқиқот натижаларини сақлаш имконияти ва уларни кейинги ишлар учун умумий база киритиш ҳисобланади.

Ҳар бир моделнинг қўлланилиши ИЭЎК билан фойдаланишни назарда тутди. ИЭЎКларни моделлар билан тўлдириш, яъни тестлар билан- имконияти мавжуд агар объект маълумотлар билан SSROM-бирлашув форматида бўлса.

3. Ўқув адекватлиги принципини амалга ошириш.

«информатикадан интерактив лобаратория ишлари» бўйича ИЭЎКларни ишлаб чиқишда қўлланилаётган контекстнинг таълим стандартларига мос келишига алоҳида аҳамият қаратилган. Бунинг учун мавжуд бўлган модуллар катологи таркибига ўзгартириш киритиш зарур бўлди ва мактаб дастурига мосланди. Янги ишлаб чиқарилган моделлар бош-бошидан мактаб талабларига мос келадиган ҳолга келтирилди.

4. Ташкилий эргономикли принципини амалга ошириш.

Илмий ишнинг энг муҳим аспектидан бири нуқта бу принципдан келиб, «Интерактив лобаратория иши информатика фани» дан ИЭЎК тартиби ва ташкил этилиши ишлаб чиқилган.

Ишнинг якуни бўлиб, ИЭЎКнинг янги авлоди концессияси - «Информатика фанидан интерактив лобаратория ишлари» бўлиб ҳисобланади. Ўқув жараёнида кетма-кет ва тизимли жорий этиш принципларини амалга ошириб муаллиф томонидан ИЭЎК моделларини қўллаган ҳолда дарсларнинг тайёр ишланмалари билан методик материаллар таклиф этилди. ИЭЎКни тасвирлаган объектларнинг рақамли мисоллари CD-дискда жойлаштирилган.

2) 2013-2015 йиллар мазкур тадқиқот доирасида педагогик тажриба ўтказилди. У ўз ичига 4 тўртта босқични олди: тасдиқловчи, изланувчи, ўқитувчи ва назорат.

Биринчи босқичда таълим жараёнида ИЭЎКдан фойдаланиш имкониятлари аниқланди. Бу имкониятлар ўқитувчилардан техник ва методик тайёргарликни талаб қилади, ўқитувчининг актив фаолиятли шаклини ИЭЎКлар билан ишлатишни жорий этишнинг муҳимлиги ўқитувчилар томонидан қай даражада тушунилгани аниқланди.

Изланувчи босқичида, ўқув жараёни ташкил қилишда ИЭЎКларнинг фрагментли «пилот» тарзида жорий этиш ўтказилди. Ўқитувчининг бундай шакллари классик синф-дарс тизими билан мос келиши даражаси аниқланди, ИЭЎКларга қўйиладиган талаблар аниқланди, ўқитувчилар билан машғулотларнинг ташкил этилиши имконияти ва шакли аниқланди. Тажриба давомида ўрта мактабда ИЭЎКларни фан ўқитиш амалиётига тўлиқ жорий этилиши ўтказилди. Бунда ўқитувчиларни ўқитиш ва курсларни техник ва методик қўллаб-қувватлаш таъминланди.

Нazorat босқичи давомида ИЭЎКни ишлатишда ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини ўзлаштиришларининг даражаси назорати ўтказилди. Машғулотларни ташкил этиш учун ИЭЎК элементлари ўқитувчилар томонидан мустақил танлаб олиш ҳуқуқларини шакллантириш даражаси аниқланди.

Хулоса қилиб айтганда, тажриба натижалари тўпланган йўналиш тўғрилиги ва ИЭЎК асосида ўқув жараёни ташкил этиш самаралилиги

исботланди. ИЭЎК қўллаган ҳолда ўқитиш курсини ўтган ўқувчилар масалаларни ечишда юқори кўрсаткичга эга бўлишди. Ўқув фаолиятда ИЭЎКни қўллашни методик таъминоти ва унинг жорий этилишига кетма-кет ва комплекс ёндашув икки йил ичида ўз касбий фаолиятида электрон ўқув курсларини систематик ҳолда қўллашга эришилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жўраев Р.Ҳ., Тайлақов Н.И. Ахборотлашган таълим муҳити–ўқитиш самарадорлигини ошириш воситаси- Узлуксиз таълим. –2004.– №5. –Б. 3–7.

2. Тайлақов Н.И., Усмонов М. Узлуксиз таълим жараёнида инновацион технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти. Узлуксиз таълим илмий-услубий журнали. 5-сон 2013 йил. Тошкент 2013. 67-70 бетлар.

3. Усмонов М. Интерактив электрон ўқув курслар-ўқитиш фаолиятининг янги воситаси сифатида. Халқ таълими илмий-методик журнал. 6-сон 2011. Тошкент. 2011. 22-23 бетлар.

MATEMATIK MODELLAR VA ULARNING AMALIYOTLARI

Tukayeva Saodat Xasanovna
Nurobod tumani 62-maktab
Matematika o'qituvchisi

Annotasiya (Abstrakt). Mazkur maqolada matematik modellar va ularning amaliyotlari haqida o'rganiladi. Modellar matematikda ko'plab sohalarda foydalaniladi va amaliyotlarga o'xshash muammolarni yechishda yordam beradi. Maqolada modellar tushunchasi, ularning foydalanish sohalari va ularni amaliyotlarga aylantirish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar; Matematik modellar, ilm-fan, texnologiyalar, mexanizmlar, tenglamalar, infeksiya, amaliyotlar, rivojlanish;

Kirish qism (Introduction). Matematik modellar va ularning amaliyotlari ko'plab sohalarda qo'llaniladi, chunki ular murakkab tizimlarni tushunish va tahlil qilish uchun qulay vosita hisoblanadi. Matematik modellar real dunyo muammolarini soddalashtirilgan va matematik shaklga keltirilgan holda ifodalaydi. Ushbu modellar turli xil sohalarda qo'llaniladi, jumladan ilm-fan, muhandislik, iqtisodiyot, biologiya va hatto ijtimoiy fanlarda ham.

Asosiy qism (Main part)

Matematik model tuzish uchun axborotlar va ma'lumotlar: Matematik modellar yaratishda va ularni sinovlashda foydalanish uchun kerakli ma'lumotlar va axborotlar. Bu ma'lumotlar, ma'lumotlar tahlili, statistika, hisob-kitob va boshqa sohalardan olinadi.

Matematik modellashtirish dasturlari va texnologiyalari: Matematik modellashtirish dasturlari, katta miqdorda ma'lumotlarni olish, modellar yaratish va ularni sinovlashda qo'llaniladi. Matlab, Python, Mathematica, R va boshqa dasturlar bu jarayonni osonlashtirishda juda samarali bo'lib xizmat qiladi.

Analitik va qo'llanishlar: Matematik modellashtirishda analitik qo'llanishlar, matematik modellar yaratish uchun muhimdir. Bu qo'llanishlar algebraik topish, differensial tenglamalar, integral hisoblash va matematik modellar tuzilishida yordam beradi. Bu materiallar va metodlar matematik modellashtirishni o'rganish va amaliyotda qo'llash uchun kerakli asosiy vositalardir. Ular modellar yaratish, sinovlash va natijalarni tahlil qilishda o'quvchilarga yordam beradi.

Matematik modellashtirishni qo'llashning boshqa sababi noformal tahminlarni izohlovchi mexanizmlarni ravon bayon qilish zaruriyati hisoblanadi. Formal model noformal model o'quvchilarning o'ta erkin ifodalarini bartaraf qilishga va aniq, gohida tekshiriladigan tahminni berishga yordam beradi Model farazlari va tahminlarni yetarli darajada aniq bo'lib qoladiki, ularni tekshirish, shuningdek, qaysi yerda va qanday xato sodir bo'lganligini ko'rsatish mumkin bo'ladi. Model faqat, uning xatolarini ko'rsatish imkoniyatini berganida foydali boladi. Formal modelning uchinchi afzalligi ularning nisbatan yuqori darajadagi murakkabliklar mohiyatlari bilan tizimli operatsiya qilish qobiliyati hisoblanadi.

1. Deterministik Modellar:

Bu modellarda barcha parametrlar aniq va qat'iy bo'ladi. Ular odatda fizika va muhandislikda qo'llaniladi. Masalan, Nyutonning harakat qonunlari asosida tuzilgan modellar.

2. Stoxastik Modellar:

Bu modellar tasodifiylikni o'z ichiga oladi va ehtimolliklar yordamida ifodalanadi. Ular ko'pincha iqtisodiyot, biologiya va sug'urta sohalarida qo'llaniladi. Masalan, fond bozoridagi narxlarning o'zgarishini prognoz qilish.

3. Dinamik Modellar:

Bu modellar vaqt bo'yicha o'zgarishni hisobga oladi. Ular fizika, biologiya (masalan, populyatsiyalar dinamikasi) va ijtimoiy fanlarda keng qo'llaniladi. Masalan, differensial tenglamalar yordamida infeksiya tarqalishini model qiladi.

4. Statik Modellar:

Bu modellar vaqt o'zgarishini hisobga olmaydi va bir vaqt kesimida tizimni tahlil qiladi. Ular ko'pincha iqtisodiyot va muhandislikda qo'llaniladi. Masalan, bozordagi muvozanatni aniqlash.

Matematik Modellarning Amaliyotlari

1. Iqtisodiyot va Moliya:

Matematik modellar iqtisodiy o'sishni prognoz qilish, risklarni baholash, investitsion strategiyalarni ishlab chiqish va bozordagi narxlarning o'zgarishini tushunish uchun ishlatiladi. Masalan, iqtisodiy o'sish modellarida Solow modeli, fond bozori analizida Black-Scholes modeli.

2. Muhandislik:

Muhandislikda matematik modellar tizimlarning dizayni, tahlili va optimallashtirish uchun ishlatiladi. Masalan, strukturaviy muhandislikda stress va kuchlanishni hisoblash uchun differensial tenglamalar ishlatiladi.

3. Ijtimoiy Fanlar:

Ijtimoiy tizimlar va inson xulq-atvorini o'rganishda matematik modellar qo'llaniladi. Masalan, o'yin nazariyasi strategik qarorlar qabul qilishni tahlil qilish uchun ishlatiladi.

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions).

Natijalar:

- ✓ Matematik modellar foydalanish sohalari kengdir: Maqolada ko'rsatilgan misollar modellar foydalanish sohalari kengligini namoyon qiladi. Modellar o'zlariga xos bo'lgan muammolarni yechishda yordam beradi.
- ✓ Modellar bilan amaliyotlar muvaffaqiyatli yechilmoqda: Misollar modellar bilan amaliyotlar yechishda muvaffaqiyatli ekanligini ko'rsatadi. Modellar amaliyotlarni soddalashtiradi va aniqligini oshiradi.

✓ Modellar matematikning turli sohalarda qo'llanilishi: Maqolada ko'rsatilgan misollar modellar matematikning turli sohalarda (soliq, statistika, injeneriya, jismoniy fanlar va boshqalar) foydalanishini namoyon qiladi.

Muhokamalar:

✓ Modellar va amaliyotlar o'rganish: Modellar va ularning amaliyotlari o'rganish matematik fanini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bu bilimlar matematikning amaliyotlarini aniqlash va muammolarni yechishda yordam beradi.

✓ Modellar amaliyotlarda foydalanishining o'zgaruvchanligi: Modellar amaliyotlarda foydalanishi o'zgaruvchanligi va muammolarni yechish usullarini o'rganuvchilar uchun muhimdir. Modellar bilan ishlashning samaradorligi amaliyotlar natijasida ko'rsatilgan.

✓ Modellar rivojlanishi: Matematik modellar rivojlanib, yangi sohalarda foydalanilmoqda. Modellar rivojlanishi matematik fanining ilg'or rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytish mumkinki, matematik modellar turli sohalarda real muammolarni tahlil qilish va yechish uchun muhim vositadir. Ular murakkab tizimlarni soddalashtirib, ular haqida aniqroq tushunchalar hosil qilish imkonini beradi. Har bir model ma'lum bir maqsad va sharoitlar uchun mos keladi, shuning uchun modelni tanlashda ehtiyot bo'lish va ularning chegaralarini hisobga olish zarur.

Maqola matematik modellar va ularning amaliyotlari mavzusini tahlil qiladi va ularni turli sohalarda foydalanishni ko'rsatadi. Modellar va amaliyotlar o'rganish matematik fanini tushunishda muhim ahamiyatga ega va ularning samaradorligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. R. M o'minov. Matematik dasturlash. Texno-tasvir. - Buxoro, 2003.
2. Хайдаров А.Т., Жумаев Ж., Шафиев Т.Р.” Основы математического моделирования” Бухара: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdon, 2022-216
3. N.S. Sayidova “Gazlangan yopiq simmetrik sohadagi harakatini matematik modellashtirish” [matn] monografiya.fan va ta'lim, 2022-116b
4. U. Shadmanov, Sh.N. Nasirova “Sonli usullar” [Matn] o'quv qo'llanma.
5. Математическое программирование в примерах и задачах. Акулич И.Л. <http://rapidshare.com/files/6775262/> kulich_matem_natahaus.rar

YADRO FIZIKASI VA ERGIYASI: ATOM YADROSINING TUZILISHI, YADRO REAKSIYALARI VA YADRO ENERGIYASIDAN FOYDALANISHNI O'RGANISH

Muhammadiyeva Ra'no Akmalovna

Nurobod tumani 62-maktab

Oliy toifali fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola yadro fizikasining mohiyatidan boshlab, atom elektr stantsiyalari qanday ishlashini tushunish uchun asos yaratadigan bir qator batafsil tadqiqotlar orqali ochiladi. Bu keyin yadro reaksiyalari mexanizmlarini va ularning elektr energiyasini ishlab chiqarishdagi muhim rolini ochib beradi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish chegaralaridan tashqari, matn yadro texnologiyasining turli xil qo'llanilishini, uning tibbiyot va sog'liqni saqlashga qo'shgan hayotiy hissasidan tortib, kosmik tadqiqotlarning keyingi davrini qo'zg'atishdagi salohiyatigacha o'rganadi.

Kalit so'zlar; Atom, yadro, innovatsiyalar, energiya, proton, neytron, kimyoviy moddalar, zarrachalar, reaksiya, yadro reaktorlari;

Kirish. Zamonaviy innovatsiyalar va kelajakdagi imkoniyatlar mayog'ining markazida yadro fizikasi printsiplaridan foydalanadigan muhandislik hayrati bo'lgan atom elektr stantsiyasi yotadi. Dunyodagi energiya ehtiyojlarining katta qismini qoplashda atom energiyasining ahamiyati muhim o'rin tutadi, qazilma yoqilg'iga toza alternativani taklif qiladi, sanoatni oldinga siljitadi va millionlab odamlarni elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. Ushbu inshootlarning qurilishi, yadrolari reaktorlari, atom energiyasidan samarali foydalanishi, zarralarni boshqarishni murakkabligi inson zukkoligini, yadroning cheksiz energiyasiga kirish qobiliyatini namoyish etadi va yadro fizikasi va energetikasining global energiya ishlab chiqarish kelajagini shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini namoyish etadi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Yadro fizikasining mohiyati

Atom yadrosini

Moddalarning asosi bo'lgan atomlar uchta asosiy zarradan iborat: proton, neytron va elektron. Atomning yadrosi proton va neytronlarni o'z ichiga oladi, elektronlar bu markaziy tuzilmani aylanib chiqadi. Protonlar musbat zaryadlangan, elektronlar esa manfiy zaryadga ega. Qizig'i shundaki, neytronlarda elektr zaryadi yo'q. Yadroning o'lchami atom o'lchamining yuzdan bir qismini tashkil etishiga qaramay atomning deyarli barcha massasi yadroda mujassamlangan. Atom hajmining 0,01% dan, uning massasi 99,9% dan ortiq. Bunday ixcham makon ichidagi massa va energiyaning bu konsentratsiyasi yadro fizikasining asosidir.

Protonlar, neytronlar va elektronlar: qurilish bloklari

Atomdagi proton va elektronlar muvozanati odatda uni elektr neytral qiladi. Protonlar va neytronlar, elektronlarga qaraganda ancha og'irroq, atom massasiga asosiy hissa qo'shadi. 1835 ta elektronning massasi bitta proton massasiga tengdir. 1837 ta elektron massasi bitta neytron massasiga tengdir. Atom tarkibidagi zarralarning eng og'iri neytron, eng yengili va jajji zarrasi elektrondir.

Yadrodagi protonlar soni moddaning kimyoviy xususiyatlarini aniqlaydi, chunki protonlar soniga mos keladigan elektronlar yadro atrofida aylanadi va kimyoviy moddalar bilan shug'ullanadi. Atomlar ichidagi bu murakkab muvozanat va tuzilish yadro fizikasida qo'llaniladigan ulkan energiya salohiyatiga asos yaratadi.

Bog'laydigan kuchlar: kuchli kuch va elektromagnit surish

Kuchli yadro kuchi tabiatdagi asosiy kuch bo'lib, yadrodagi proton va neytronlarni bog'lash uchun juda muhimdir. Musbat zaryadlangan protonlar orasidagi suruvchi kuchga qaramay, kuchli mezon deb nomlanuvchi zarralar almashinuvi natijasida kuch bu nuklonlarning yadroning nihoyatda kichik chegaralarida bir-biriga yopishishiga imkon beradi. Bu kuch shunchalik kuchliki, u yergadi protonlar orasidagi elektromagnit itarish, ya'ni Kulon kuchlari yuqoladi. Lekin uning diapazoni cheklangan.

Neytronlar yadroni barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ularning neytral zaryadi protonlar orasidagi suruvchi kuchlarni yumshatishga yordam beradi. Xarakterlovchi mezon almashinuvida ishtirok etish orqali kuchli kuch, neytronlar yadroni butunligini saqlaydigan umumiy bog'lanish energiyasiga hissa qo'shadi. Yadro kuchlari va zarrachalarning bu nozik muvozanati atomlarning barqarorligi uchun juda muhimdir.

Yadro bo'linishida atomlarning bo'linishi sezilarli miqdorda energiya chiqaradi, bu jarayon uran atomlari yordamida atom elektr stansiyalarida qo'llaniladi. Ushbu reaksiya neytronning uran atomi bilan to'qnashuvini o'z ichiga oladi va bu issiqlik va nurlanish hosil qiluvchi zanjir reaksiyasiga olib keladi. Boshqa tomondan, yadro sintezi, yulduzlarni quvvatlantiradigan jarayon atomlarning birlashishini o'z ichiga oladi energiyani chiqarib, kattaroq yadro hosil qiladi.

Yadro Reaksiyalari Tushuntirildi

Yadro reaktorlari yadro sifatida xizmat qiladi atom elektr stansiyalari, bu yerda ular boshqaradi yadro zanjiri orqali issiqlik hosil qilish reaksiyalari bo'lishi. Keyin bu issiqlik yordamida bug' hosil qilinib, bug' turbinalariga, u orqali generatorga yuboriladi. Reaktorning asosiy vazifasi yadro bo'linishini o'z ichiga olish va boshqarishdir, bu jarayon atomlarning bo'linishi va energiya chiqarishi bilab boradi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Yadro bo'linish jarayoni

➤ Bo'linishni boshlash: yadro bo'linishi neytron uran atomi bilan to'qnashganda boshlanadi, bu uning bo'linishiga va sezilarli miqdorda issiqlik va nurlanishni chiqarishiga olib keladi. Bu bo'linish ham ko'proq neytronlarni chiqaradi, keyin ular boshqa uran atomlari bilan to'qnashishda davom etadi va zanjir reaksiyasini Tujunga keltiradi.

➤ Zanjir reaksiyasini boshqarish: yadro zanjiri reaksiyasi ma'lum miqdorda issiqlik ishlab chiqarish uchun elektr stantsiyalari reaktorlarida ehtiyotkorlik bilan boshqariladi. Boshqaruv tayoqchalarini ichiga kiritish yoki tortib olish mumkin. Reaktor yadrosidan mos ravishda reaksiya tezligini kamaytirish yoki oshirish uchun muhimdir.

➤ Issiqlikni elektr energiyasiga aylantirish: bo'linishdan hosil bo'lgan issiqlik suvni bug'ga aylantiradi. Keyin bu bug' elektr energiyasini ishlab chiqaradigan generatorga ulangan turbinani aylantiradi. Bu jarayon atom energiyasini uglerod chiqarmasdan elektr energiyasiga samarali ravishda aylantiradi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Yadro sintezi: yulduzlarning quvvat manbai

Yadro sintezi, bo'linishdan farqli o'laroq, kattaroq atom hosil qilish uchun ikkita yengil atomning birikmasini o'z ichiga oladi. Quyosh va yulduzlarni quvvatlantiradigan bu jarayon energiyani bir necha barobar ko'proq chiqaradi bo'linish va yuqori radioaktiv mahsulotlar ishlab chiqarishini oshiradi.

Boshqariladigan Yadro Reaksiyalari Orqali Energiyadan Foydalanish

Atom elektr stantsiyalari asosan elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun bo'linishdan foydalanadi. Jarayon issiqlik hosil qilish uchun reaktor ichida bo'linadigan uran atomlarini o'z ichiga oladi, so'ngra suvni qaynatish uchun ishlatiladi. Qo'shma Shtatlar, 1 yil 2023 avgust holatiga ko'ra, 93 shtat bo'ylab 28 ta yadro reaktoriga ega edi va bu taxminan 20% ga hissa qo'shdi 1990 yildan beri mamlakatning umumiy yillik elektr energiyasi hisoblanadi.

Dunyo miqyosida 33 ta mamlakat tijorat atom elektr stantsiyalarini boshqaradi, Fransiya va qo'shma Shtatlar atom elektr energiyasini ishlab chiqarishda yetakchi hisoblanadi.

Yadro sintezi kelajakda termoyadroviy reaksiyalarni boshqarishning texnik muammolarini yengishga qaratilgan doimiy tadqiqotlar bilan energiya ishlab chiqarish imkoniyatini taqdim etadi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarishda atom energiyasining roli.

Atom energiyasi atom yadrosidagi quvvatni ishlatish orqali elektr energiyasini ishlab chiqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu jarayon ikkita asosiy atom reaksiyasini o'z ichiga oladi: yadro sintezi va bo'linish, ikkinchisi hozirgi atom elektr stantsiyalarining asosi hisoblanadi.

Atom energiyasining afzalliklari: samaradorlik va ishonchlilik

Atom energetikasi energiya manbai sifatida samaradorligi va ishonchliligi bilan ajralib turadi. Har yili qariyb 800 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini ishlab chiqaradigan atom energiyasi eng katta manba hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa qilib aytish mumkinki, yadro fizikasi va yadro energiyasi ilm-fanning eng ilg'or va murakkab sohalaridan biri bo'lib, atom yadrosining tuzilishini, yadro reaksiyalari va energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganadi. Yadro energiyasi katta miqdorda energiya ishlab chiqarish va atmosferaga zararli chiqindilarni kamaytirish uchun samarali vosita bo'lib, ayniqsa yadro elektr stansiyalari orqali barqaror energiya manbai sifatida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tibbiyot va sanoat sohalarida radioaktiv va radiografiya kabi texnologiyalarning qo'llanilishi muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, yadro energiyasidan foydalanishning kamchiliklari ham mavjud. Radioaktiv chiqindilarni boshqarish va uzoq muddatli saqlash masalalari, yadro avariylari xavfi va yadro qurollari tarqalishi xavfi jiddiy e'tiborni talab qiladi. Bu muammolarni hal etish va xavfsizlikni ta'minlash uchun ilmiy tadqiqotlar va muhandislik yechimlari muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухин К.Н. Экспериментальная ядерная физика. Т.1-2. Москва, Энергоатомиздат, 1993.
2. Широков Ю.М., Юдин Н.П. Ядерная физика. Москва, Наука, 1980.
3. Bekjonov R.B. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. T.: O'qituvchi, 1995.
4. Teshaboyev. Sh. Yadro va elementar zarralar fizikasi. T.: O'qituvchi, 1992.
5. Mo'minov T., Xushmurodov Sh.X., Xoliqulov A.B. Atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi ma'ruza kursi. S.: 2001
6. Bekjonov R.B. Elementar yadro fizikasi. T.: O'qituvchi, 1982.
7. Сивухин Д.В. Общий курс физики. Москва, Наука, 1989.
8. Наумов А.И. Физика атомного ядра и элементарных частиц. Москва, Просвещение, 1984.

DAVLAT VA JAMIYATNING MAHALLA SPORTIGA E'TIBORI

Normamatov Rahmiddin Choriyevich

Guliston davlat pedagogika instituti 32 22 guruh 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan va raqamli dunyoda jamoalarning matolari ko'pincha ingichka bo'lib, odamlar tobora izolyatsiya qilingan hayot kechirmoqda. Bunday ijtimoiy tendentsiya sharoitida mahalla sportining mahallalar ruhiyatini tiklash, jismoniy barkamollikni yuksaltirishdagi o'rni ham davlat, ham jamiyat e'tiborini tortmoqda. Aloqalarni mustahkamlash, qadriyatlarni singdirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish vositasi sifatida mahalla sportining o'zgartiruvchi kuchini e'tirof etish jamiyat farovonligi va jamiyat hamjihatligi yo'lidagi umumiy sadoqatni ta'kidlaydi. Davlat va jamiyatning mahallalar sporti tashabbuslari bilan faol ishtirok etishi va ularni qo'llab-quvvatlash yo'llarini chuqurroq o'rganish orqali biz jonli, mustahkam va bir-biriga bog'langan jamoalarni shakllantirishda ushbu tadbirlarning muhim ahamiyatini ochib bera olamiz.

Kalit so'zlar: sport, jamiyat, davlat, jismoniy tarbiya, mahalla sporti, salomatlik.

Texnologiya ko'pincha hayotimiz sur'atini belgilab beradigan zamonaviy jamiyatning shovqinli gobelenida jamoaviy aloqalarni rivojlantirish va jismoniy farovonlikni mustahkamlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu hayotiy jihatlarni tarbiyalashning bir yo'li mahalla sportidir. Bu kabi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga davlat va jamiyatning e'tibori nafaqat tahsinga loyiq, balki shaxs va jamiyatning har tomonlama rivojlanishi uchun ham zarurdir. Davlatning mahallalarda sportni targ'ib qilishda ishtirok etishi keng qamrovli ma'noga ega. Mahalliy sport klublari uchun mablag' va mablag' ajratish, mahallalarda sport inshootlarini rivojlantirish, sportni ta'lim dasturlariga kiritish orqali davlat faol va sog'lom turmush tarzini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu sarmoya nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlaydi, balki huquqbuzarliklarning oldini olish, yoshlarni faollashtirish va jamiyatning imkoniyatlarini kengaytirish kabi kengroq ijtimoiy muammolarni ham hal qiladi. Siyosat va dasturlar orqali davlat sport odamlarning rivojlanishi va jamoalarning gullab-yashnashi uchun vosita bo'lib xizmat qiladigan muhitni yaratishi mumkin. Mahalla sportini qo'llab-quvvatlashda jamiyatning o'rni birdek muhim. Ko'ngillilar, mahalla yetakchilari, ota-onalar va mahalliy korxonalar quyi bosqichdagi sport tashabbuslarining muvaffaqiyatiga hissa qo'shmoqda. Tadbirlar, turnirlar va ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish orqali jamiyat o'zaro munosabatlar o'rnatiladigan, jamoaviy mehnat va intizom qadriyatlari singdiriladigan, g'urur va daxldorlik tuyg'usi tarbiyalanadigan joylarni yaratadi. Bunda jamiyat nafaqat jismoniy salomatlikni, balki mahallalarda ijtimoiy hamjihatlik va birlikni ham mustahkamlaydi. Mahalla sporti nafaqat jismoniy faollik; ular jamoalar

qurish, munosabatlarni rivojlantirish va yosh, jins va ijtimoiy-iqtisodiy maqom chegaralaridan tashqarida bo'lgan qadriyatlarni singdirishga qaratilgan. Davlat va jamiyatning ushbu tadbirlarga qaratilayotgan e'tibori shaxs va jamiyatning farovonligi va hayotiyiligini ta'minlashga intilayotganligini ko'rsatadi. Mahalla sportiga sarmoya kiritib, biz mahallalarimiz salomatligi va baxtiga sarmoya kiritamiz, odamlar ravnaq topishi va jamiyatlar ravnaq topishi uchun sharoit yaratamiz.

Mahalla sporti jamiyatning faolligini, jismonan farovonligini va jamiyatda hamjihatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olsak, bunday tadbirlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishda ham davlat, ham jamiyat e'tiborini e'tirof etish zarur. Mahalla sporti nafaqat odamlarning jismoniy salomatligiga hissa qo'shadi, balki munosabatlarni o'rnatish, jamoaviy ish va tartib-intizom qadriyatlarini singdirish va jamiyatlarda umumiy hayot sifatini oshirish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi. Mahallalarda sportni rivojlantirishga davlatning jalb etilishini joylarda sport klublarini moliyalashtirish, mahallalardagi sport inshootlari infratuzilmasini rivojlantirish, maktab o'quv dasturlarida sportga ustuvor ahamiyat beruvchi siyosatni joriy etish kabi turli tashabbuslar orqali ko'rish mumkin. Mahalla sportiga sarmoya kiritib, davlat nafaqat faol va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilmoqda, balki huquqbuzarliklar profilaktikasi, yoshlar faolligini oshirish, mahalla fuqarolar yig'ini imkoniyatlarini kengaytirish kabi ijtimoiy masalalarni ham hal etmoqda. Boshqa tomondan, jamiyat ko'ngillilik, ommaviy sa'y-harakatlar va inklyuziv va qulay sport dasturlarini targ'ib qilish orqali mahalla sportini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar, o'qituvchilar, mahallalar yetakchilari va mahalliy tadbirkorlik sub'ektlarining mahallalarda sport tadbirlarini targ'ib qilish va faol ishtirok etishi jamiyatda daxldorlik va faxrlanish tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Tadbirlar, turnirlar va ko'ngilochar tadbirlar orqali mahalla sporti yoshi, jinsi va ijtimoiy-iqtisodiy holati to'siqlaridan oshib o'tib, odamlarni birlashtiruvchi birlashtiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Davlat va jamiyatimizning mahalla sportiga bo'lgan e'tibori bunday tadbirlarning inson va jamiyatga berayotgan ko'p qirrali afzalliklari e'tirof etilganidan dalolatdir. Mahallalarda sport mahorati, jamoaviy mehnat va inklyuzivlik madaniyatini tarbiyalash orqali mahalla sporti nafaqat jismoniy sog'lom, balki odamlarning ijtimoiy va ma'naviy farovonligiga ham hissa qo'shadi, jamiyatni yanada kuchli, sog'lom va bir-biriga bog'lab turadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, davlat va jamiyatimizning mahalla sportiga qaratilayotgan e'tibor ahamiyatini ta'kidlab bo'lmaydi. Jamiyat farovonligini oshirishda sportning o'zgartiruvchi kuchini e'tirof etish orqali ham davlat ham, jamiyat ham insonlar sog'lom, jamiyatlar kuchli va butun jamiyat bir-biriga bog'langan kelajakka yo'l ochadi. Mahalla sporti bo'yicha chempionlikni davom ettirar ekanmiz,

sport madaniyatini shakllantirish bilan birga, biz ham barcha uchun yaxshiroq, yorqin kelajakni qurayotganimizni yodda tutaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekistonda sportni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishning o'ziga xos-xususiyatlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent A. A. Tillyaxodjaev Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent J. P. Narziev FAN-SPORTGA, 2022/1son
- 2.K. Ziyodullayev, K. Yarashev, Babajanov R. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. 2020 Darslik 281 b
- 3.Nabiullin R. X, Jismoniy tarbiya va sport menejmenti 2016 yil 294 b Darslik
- 4.Nabiullin R. X, Jismoniy tarbiya va sport menejmenti T: O'qituvchi 2008 Darslik
- 5.Qosimova D. S. Menejment nazariyasi: Darslik - Toshkent, «Tafakkur-bo'stoni». 2011.336 b.

ОБУЧЕНИЕ РЕЧЕВОМУ ЭТИКЕТУ

Мамадалиева Феруза Алимжановна
Старший преподаватель Ташкентского
государственного экономического
университета
m.feruza_71@mail.ru

Аннотация: В статье рассматриваются аспекты обучения речевому этикету, восприятия чужой культуры, традиций и обычаев народа изучаемого языка. Отработка различных типов заданий и упражнений тренирует и формирует мыслительный процесс, формирует навыки речевого запоминания, сохранения и воспроизведения речевых образцов. Методика обучения языку ориентирована, прежде всего, на принцип коммуникативности, предполагающий широкое использование учебно-речевых ситуаций при обучении языку на основе лингвострановедческих и языковых знаний и умений.

Ключевые слова: культура, метод, речь, язык, трансформация модели, упражнения, коммуникация, система.

Annotation: The article examines aspects of teaching speech etiquette, perception of foreign culture, traditions and customs of the people of the language being studied. Practicing various types of tasks and exercises trains and shapes the thought process, develops the skills of speech memorization, preservation and reproduction of speech patterns. The language teaching methodology is focused, first of all, on the principle of communicativeness, which involves the widespread use of educational and speech situations in language teaching on the basis of linguocultural and linguistic knowledge and skills.

Key words: culture, method, speech, language, model transformation, exercises, communication, system.

